Vertitsillium zamburug‘i bilan kasallanishni ball shkalasida baholash, o‘rganiladigan navlar, shakllar va duragaylarni ushbu kasallik bilan kasallanish darajasini A.Shami formulasi bilan aniqlash imkoniyatini beradi. Ushbu usul orqali g‘o‘za o‘simliklarini vertitsillyoz vilt bilan kasallanish darajasini xolis aniqlash mumkin. Kasallanish darajasi ko‘rsatkichlari past bo‘lganligi o‘rganilgan o‘simliklarni vertitsillyoz viltga bardoshliligi yuqori bo‘lganligini aks ettiradi. Tajribalarimizda keltirilgan ma‘lumotlardan eng yuqori kasallanish darajasi S-6524 va Sulton navlarida (0,86-0,89) kuzatilganligini ko‘rish mumkin. Buxoro-6 va Buxoro-102 navlarining kasallanish ko‘rsatkichlari S-6524 va Sulton navlariga nisbatan ancha ishonarli past bo‘lganligi aniqlandi. Eng past kasallanish darajasi ko‘rsatkichlari Andijan-36, SP-7702 va SP-7703 navlarida qayd etilib, 0,13– 0,25 oralig‘ida bo‘ldi. Ushbu belgi ko‘rsatkichlari asosida Andijan-36, SP-7702 va SP-7703 navlarini vertitsillyoz viltga bardoshli deb baho berish mumkin.

2-jadvalda g‘o‘za tizmalar va duragay o‘simliklarining Verticillium dahliae Kleb bilan tabiiy infeksiyon dala fonida kasallanishi bo‘ycha ma‘lumotlar keltirilgan.

2-jadvalda keltirilgan ma‘lumotlardan tizmalarni 15.08 zararlangan o‘simliklarning soni umumiy holatda 21,8-23,9 % ni tashkil etganligi va kuchli holatda zararlangan o‘simliklar kuzatilmaganligi aniqlandi. Duragaylarda 15.08 zararlangan o‘simliklarning soni umumiy holatda 21,2-29,3% bo‘lib, retsiprok ta‘siri namoyen bo‘ldi.

F₁T-40 x T-41 duragay kombinatsiyasida umumiy holatda zararlangan o‘simliklarning soni retsiprok kombinatsiyasiga nisbatan past bo‘lgani aniqlandi. Kuchli holatda zararlangan o‘simliklar kuzatilmadi.

1.09 da o‘tkazilgan kuzatuv ma‘lumotlaridan T-41 tizmada umumiy holatda zararlangan o‘simliklarning soni T-40 tizmaga nisbatan ancha yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Duragay o‘simliklarida 1.08 kuzatuv holati namoyen bo‘ldi. T-41 tizma onalik sifatida olingan duragay 10,5% o‘simliklari umumiy holatda zararlanganligi kuzatildi.

2-jadval

G‘o‘za tizmalari va duragay o‘simliklarining Verticillium dahliae Kleb bilan tabiiy infeksiyon dala fonida kasallanishi.

	15.08	1.09	15.09
Tizma va duragaylar	zararlangan o‘simliklarning soni, %.	zararlangan o‘simliklarning soni, %.	zararlangan o‘simliklarning soni, %.

	umu miy holatda, %	kuc hli holatda, %.	umu miy holatda, %	kuc hli holatda, %.	umu miy holatda, %	kuc hli holatda, %.
T-40	23,9	0	36,4	0	43,3	4,2
T-41	21,8	0	45,0	0	55,6	4,1
F₁T-41x T-40	29,3	0	41,0	0	51,4 hp = - 0,31	4,3 hp = -3,0
F₁T-40 x T-41	21,2	0	30,5	0	33,8 hp = 2,54	2,3 hp = 37,0
EKF 0,5	5,1		10,7		8,9	0,67
F_{0,5} =3,49	Ff =5,0		Ff =3,6		Ff =11,0	Ff =19,9

15.09 da o'tkazilgan kuzatuv natijasida o'rganilgan tizma va duragaylarda kuchli holatda zararlangan o'simliklar bo'lganligi aniqlandi. Tizmalarda 15.09 zararlangan o'simliklarning soni 4,1-4,2 % ni, duragaylarda esa 2,3-4,3 % ni tashkil etdi. Kuchli holatda zararlangan o'simliklarni soni F₁T-40 x T-41 duragay kombinatsiyasida kuzatildi. F₁T-41x T-40 duragay kombinatsiyasida kuchli holatda zararlanganligi bo'yicha salbiy geterozis (-3,0) retsiprok kombinatsiyasida esa ijobiy geterozis (37,0) dominantlik holatlari namoyon bo'ldi. Tizmalarda 15.09 zararlangan o'simliklarning soni umumiy holatda 43,3-55,6 % ni tashkil etib, T-41 tizma ko'proq kasallanganligi aniqlandi. F₁T-41x T-40 duragay kombinatsiyasida umumiy holatda kasallangan o'simliklarning soni 51,4 % bo'lib retsiprok kombinatsiyasiga nisbatan 17,6 % ga yuqori bo'lganligi aniqlandi. F₁T-41xT-40 duragay kombinatsiyasida umumiy holatda zararlanganligi bo'yicha salbiy o'rtacha (-0,31) T-40 tizma onalik sifatida olingan duragay kombinatsiyasida esa ijobiy geterozis (2,54) dominantlik holatlari namoyon bo'ldi.

XULOSA

Olingan ma'lumotlarning tahlillari asosida shuni xulasa qilish mumkin, tajribaga jalb qilingan tizmalar va duragaylarning *Verticillium dahliae* Kleb ga bardoshlik darajasi har xil bo'lganligi aniqlandi. T-40 tizmasi va ushbu tizma onalik sifatida olingan duragay kombinatsiyasi *Verticillium dahliae* Kleb ga bardoshligi yuqori bo'lganligi kuzatildi. T-40 tizmani *V. dahliae* Kleb kasalligiga yuqori bardoshli navlarni yaratishda boshlang'ich ashyo sifatida jalb qilish tavsiya etiladi. Tajribaga jalb qilingan navlarni *V. dahliae* zamburug'ini izolyatlariga bardoshlilik darajasi turli navlarda har xil bo'lganligi, umumiy holatda zararlanishiga navlarning genotipi va izolyatlarning ta'siri deyarli bir miqdorda bo'lganligi, kuchli holatda zararlanishiga navlarning genotipining ta'siri ko'proq ekanligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Egamberdiyeva S.A. Nasledovaniye viltoustoychivosti u gibridov poluchennix s uchastiyem introgressivnix form. G'o'za, beda seleksiyasi va urug'chiligini rivojlantirishning nazariy hamda amaliy asoslari, resp. ilm.-amal. anjumani to'pl., №30, FAN, Toshket, 2010, b. 231-238.
2. Xolmurodova G.R., Namazov Sh.E., Boboyev S., Jumayeva G. Konvergent duragaylarida tezpisharlik va viltga bardoshlik belgilarining o'zaro korrelyatsiyasi. Jahon andozalariga mos g'o'za va beda navlarini yaratish istikbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani to'plami. №31–Toshkent: “TURON-IQBOL” Toshkent, 2011. B.185-187.
3. Сидиков А.Р. Ёўзанинг туричи дурагайларида оқ палак касаллигига чидамлик хусусиятининг ирсийланиши. Материалы научно-практической конференции «Состояние селекции и семеноводства хлопчатника и перспективы ее развития». Ташкент, 2006, с.143-146.
4. Сайдалиев Х., Халикова М., Мамарахимов Б. Вилтоустойчивость межвидовых гибридов хлопчатника. Достижения генетики и селекции в области скороспелости и устойчивости сельскохозяйственных растений к биотическим и абиотическим факторам среды. Респ. илм. амал. анж. матер., Тошент, 2011, б.142-144.
5. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. - Колос, 1979. – 416 С.

FIZIKA FANINI O'QITISHDA METAKOGNITIV STRATEGIYALARNI QO'LLASHNING TA'LIMYIY NATIJALARI

O'rinboyev Muxammadzoxir Iqboljon o'g'li

**Andijon davlat pedagogika instituti, Fizika va texnologik ta'lim kafedrası
katta o'qituvchisi, Andijon shahar Do'stlik ko'chasi 4-uy, E-mail:**

muhammadzohirorinboyev20@gmail.com

Kirish. Metakognitiv jarayonlar va fizika fanini o'qitish o'quvchilarning o'rganish jarayonlarini chuqurroq tushunishga va samarali boshqarishga yordam beruvchi innovatsion yondashuv hisoblanadi. Bu yondashuv o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatlarini oshiradi, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi va o'quvchilarning ta'limiy natijalarini yaxshilashga yordam beradi. Metakognitsiya o'quvchilarning o'z bilimlarini monitoring qilish, nazorat qilish va baholash qobiliyatini rivojlantiradi, bu esa ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli qiladi.

Metakognitsiya – bu shaxsning o'z bilim jarayonlari haqida bilishi va ushbu jarayonlarni nazorat qilish qobiliyati. Metakognitiv strategiyalar o'quvchilarning o'rganish jarayonlarini monitoring qilish, o'zlashtirish darajasini baholash va o'rganish usullarini takomillashtirish imkonini beradi. Ushbu strategiyalar ikki asosiy komponentni o'z ichiga oladi: metakognitiv bilim va metakognitiv monitoring[1].

Metakognitiv strategiyalarni fizika fanida qo'llash:

Metakognitiv bilim o'quvchilarning qanday o'rganish usullari samarali ekanligini bilishini anglatadi. Bu bilimlar o'quvchilarga o'rganish jarayonini rejalashtirish va nazorat qilishda yordam beradi. Masalan, fizika darsida o'quvchilar qanday usullar yordamida nazariy bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirish mumkinligini o'rganadilar. Metakognitiv monitoring o'quvchining o'z bilimlarini baholash va nazorat qilish jarayonini ifodalaydi. Bu jarayon o'quvchilarga o'rganish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelganida o'z strategiyalarini o'zgartirish imkonini beradi. Masalan, fizika fanida o'quvchilar o'z bilimlarini testlar yoki amaliy masalalar yordamida sinab ko'rish orqali baholaydilar[2,3].

Amaliy mashg'ulotlar:

Fizika fanini o'qitishda metakognitiv strategiyalarni qo'llashning bir necha asosiy usullari mavjud. O'quvchilar uyda nazariy materiallarni mustaqil ravishda o'rganadilar. Bu jarayon ularning metakognitiv bilimlarini rivojlantiradi va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini oshiradi. Masalan, "Energiyaning saqlanish qonuni" mavzusida o'quvchilar YouTube yoki boshqa ta'lim platformalaridan video darslarni tomosha qilib, nazariy bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtiradilar. Dars vaqtida o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari orqali mustahkamlaydi. Bu jarayon o'quvchilarning metakognitiv monitoring ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, "Energiyaning saqlanish qonuni" mavzusida o'quvchilar turli energiya turlarini o'rganish va ularga bog'liq masalalarni yechishda amaliy tajribalar o'tkazadi[4].

O'quvchilar o'z bilimlarini monitoring qiladi va o'zlashtirish darajasini baholaydi. Bu jarayon o'quvchilarga o'z bilimlari ustidan nazoratni qo'lga kiritishiga va o'rganish jarayonini samarali boshqarishga yordam beradi. Masalan, o'quvchilar har bir darsdan

so'ng o'z bilimlarini test savollari yoki amaliy masalalar yordamida sinab ko'radi va natijalarini baholaydi. Bu jarayon o'quvchilarning o'z bilimlari ustidan nazoratni qo'lga kiritishga va o'rganish jarayonini samarali boshqarishga yordam beradi[5].

Ta'limiy natijalar:

Metakognitiv strategiyalarni qo'llash o'quvchilarning ta'limiy natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Metakognitiv strategiyalar o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. O'quvchilar o'z o'rganish jarayonida faol bo'lishga intiladi va darsda faol ishtirok etadi. Bu esa ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Nazariy bilimlar amaliyotda mustahkamlanadi. O'quvchilar nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlaydi va bu bilimlar uzoq muddatli xotirada saqlanib qoladi. Bu jarayon o'quvchilarning fizika fani bo'yicha bilimlarini chuqurlashtiradi. Metakognitiv jarayonlar o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchilar o'zlarini o'qitish jarayonida samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa kelajakda ularning bilim olish jarayonini davom ettirishga yordam beradi.

Xulosa

Metakognitiv strategiyalarni fizika fanini o'qitishda qo'llash, o'quvchilarning ta'limiy natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ushbu strategiyalar o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlashga, o'z-o'zini monitoring qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Kelajakda metakognitiv strategiyalarni boshqa fanlarga qo'llash va ularning samaradorligini yanada chuqurroq o'rganish muhimdir. Shu bilan birga, ushbu yondashuvni takomillashtirish uchun yangi texnologiyalar va metodlarni kiritish zarur.

Adabiyotlar

1. Flavell, J. H "Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive–Developmental Inquiry." American Psychologist, 34(10), 906-911.
2. Schraw, G., & Moshman, D. "Metacognitive Theories." Educational Psychology Review, 7(4), 351-371.
3. Zohar, A., & Ben David, A. "Explicit Teaching of Metastrategic Knowledge in Authentic Classroom Situations." Metacognition and Learning, 3(1), 59-82.
4. YA Mamatxunov, QM Abduvaliyev Prospects for the use of" swot analysis" in the development of creative abilities of students of physics in secondary educational institutions. Internatsional Cientific reaserch jurnal 2022/7/7 tom 3 H 2776-0979 C 339
5. White, B. Y., & Frederiksen, J. R. "Inquiry, Modeling, and Metacognition: Making Science Accessible to All Students." Cognition and Instruction, 16(1), 3-118.

СПЕЦИФИКА И МЕТОДИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМ КАПИТАЛОМ В ОБРАЗОВАНИИ

Рахманова Макаддас Кахрамоновна

**Профессор кафедры общей педагогики Чирчикского государственного
педагогического университета,**

доктор педагогических наук

Норматова Замира Аминжоновна

**Научный сотрудник кафедры общей педагогики
педагогического факультета Чирчикского
государственного педагогического университета**

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonini tashkil etish, inson faoliyati hamda intellektual kapitalini boshqarish haqidagi ilmiy bilimlarning holatini o'rganib, maqsadli jarayon, uning funksional ahamiyati, bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyalari tizimini o'z ichiga olgan modelni shakllantirish xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, kapital, ining ilmiy bilim, bilish, funksional ahamiyat, bo'lajak o'qituvchi, modellashtirish, metodologik, gneseologik, tushuntirish, integrativ, transformatsion va imitativ funktsiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается состояние научных знаний об организации образовательного процесса, управлении человеческой деятельностью и интеллектуальным капиталом, а также говорится о формировании модели, включающей целевой процесс, его функциональное значение, а также систему профессионального обучения. компетенции будущего учителя.

Ключевые слова: Образование, капитал, научное знание, познание, функциональная значимость, будущий учитель, моделирование, методологическая, гнесеологическая, объяснительная, интегративная, преобразовательная и подражательная функции.

Abstract: This article examines the state of scientific knowledge about the organization of the educational process, the management of human activity and intellectual capital, and talks about the formation of a model that includes the target process, its functional significance, and the system of professional competencies of the future teacher.

Key words: Education, capital, scientific knowledge, cognition, functional significance, future teacher, modeling, methodological, epistemological, explanatory, integrative, transformational and imitative function.

Анализ содержания, структуры и процессов влияния образовательного процесса на принятие решений, связанных с управлением образовательным процессом, направлен на изменение качеств субъектов образования, относящихся к процессу взаимодействия и поддержки, т. е. влияние личности на организацию образовательного процесса В.В.Базарова, Т.А.Салимовы " планирование-организация – полагают, что управление будет состоять из выдачи

заданий подчиненным, анализа состояния коллектива, оценки работы подчиненных, принятия решений о вознаграждении и наказании и т.д. и контроля (сбора информации о процессе реализации намеченных планов).

В. В. Адамуров в вопросе "вооружения личностно-ориентированными образовательными технологиями на основе подготовки к проектированию многопрофильного учебно-познавательного процесса с учетом индивидуальных особенностей учащихся" [6] и предложенная модель Д.А. Кадыровым предполагает оценку развития профессиональной компетентности будущих учителей истории в 4 этапа.[10]

С их точки зрения, мы можем рассматривать модель как совокупность функций, выполняемых в определенной последовательности или параллельно, направленных на достижение определенной цели. Здесь стоит особо отметить, что взаимосвязь между системой управления и управляемыми образовательными субъектами также приобретает важное значение.

Научный анализ вышеуказанных исследований показал, что готовность студентов к будущей профессиональной деятельности рассматривается как управление человеческим капиталом, являющееся неотъемлемой чертой личности, и как цели процесса преподавания истории в педагогическом вузе. Как известно, совершенный человек-это человек, сформировавшийся на высоком уровне в соответствии с требованиями общества, успешно выполняющий свои обязанности в окружающем мире. Такое свойство, определяющее направление всей жизни человека и оставляющее след во многих других качествах, подчиняющее их своей природе, объединяющее в единое целое, можно выразить в понятии человеческого капитала. В любом целом всегда есть компоненты.

Изучая состояние научного знания о готовности к обучению, профессиональной и человеческой деятельности и другим видам капитала, исследуем целевой феномен "готовности"обучающихся к обучению по моделям и их функциональное значение в познании и рассматриваем его как систему профессиональных компетенций будущего педагога. Считаем, что готовность к математическому моделированию проецируется как целостная динамическая характеристика личности будущего специалиста, структурированная как средство познания материального мира с методологической, гнесеологической, объяснительной, интегративной, трансформационной и имитационной функциями моделей.

В модели исследования профессора Д.О.Гимматалиева на основе моделирования процессов обучения, разработанного в научной школе, мы получаем четыре компонента подготовки к профессиональной деятельности, которые включают в себя системные и целостные характеристики: содержательно-процессуальные; деятельностные; мотивационно-целевые; профессионально-ориентированные. Выбор этих составляющих в качестве личностных характеристик будущего педагога, анализ деятельности специалистов данного образовательного направления зависит от потребности в специалистах с развитыми творческими способностями как методической культуры в целом.

Таким образом, целенаправленно-процессуальный компонент (ядро) человеческого капитала характеризуется междисциплинарными знаниями, творческими умениями в решении задач. Учитывается способность моделировать и прогнозировать потоки реальных процессов, связанных с человеческим капиталом. Деятельностный компонент включает математическое моделирование сложных образовательных процессов, связанных с недостатком информации. Мотивационно-целевой компонент педагогическое моделирование изучаемой исторической информации предполагает разработку методов профессионального мышления и постановку личных целей в контексте знаний. Для него характерна способность соразмерно применять к профессиональной деятельности творческий процесс мышления, составляющий основу человеческого капитала.

При этом каждый компонент содержит взаимосвязанные свойства, описанные в определениях: 1) знает, владеет, моделирует, украшает, сравнивает, выбирает, формирует; 2) знает, находит; 3) стремится, интересуется, понимает, чувствует потребность; 4) осознает, понимает, убеждает.

Если каждый выбранный компонент рассматривается отдельно, возможность изучения, анализа, применения через него не дает достаточной картины без учета связей, которые более активно способствуют развитию человеческого капитала. Например, если учащийся обладает историческими знаниями и знает, что моделирование различных явлений процессов способствует изучению реальной действительности, то на этой основе он получает представление о природе реальных процессов, и он осознает необходимость овладения методами моделирования процессов действительности. Это также формирует навык прогнозирования будущей деятельности в данный момент. Таким образом, структура готовности учащихся к моделированию будущей деятельности на основе исторических знаний как аспект методического капитала будущих педагогов представлен в таблице 1.

Таблица 1

**Структура готовности к моделированию процессов обучения в
управлении человеческим капиталом**

Компоне	Состав
Целевой процесс	Умение моделировать различные исторические реалии порождает закономерности изучаемого процесса на основе наглядно-эмпирических и информационно-виртуальных представлений, логистических подходов, закономерностей изучаемой действительности, выбора наиболее эффективных моделей решения задачи, переноса из абстрактной модели в реальный процесс и знания процессов моделирования.
Активный	Способен принимать решения по практическим вопросам, строить “виртуальную” модель реальных процессов, формулировать исторический процесс в логически формализованной схеме, находить новые свойства социального процесса, решать проблемы, связанные с управлением

Индивидуально ориентированный	Узбекистан понимает историю и закономерности исторического процесса, самостоятельно моделирует реалии реального и прошлого, предсказывает экстремальные и нестандартные ситуации, необходимые для эффективного творческого решения своих задач и управления человеческим капиталом, творчески мыслит, принимает самостоятельные решения.
-------------------------------	--

Эти компоненты взаимосвязи управления человеческим капиталом как неотъемлемая черта личностно-профессиональной деятельности будущих педагогов объединяют различные уровни “подготовленности”, “базы знаний”.

Низкий уровень характеризуется недостаточным осознанием учащимися модельного характера действительности, значимости методов моделирования. Они могут объяснить проблему с помощью готовой модели, но сами затрудняют практическую задачу построением “виртуальной” модели реальных процессов.

Учащиеся, относящиеся к среднему уровню, интересуются методами моделирования исторических процессов, осознают профессиональную значимость этих методов, но сталкиваются с трудностями при выборе наиболее эффективной модели решения задачи из нескольких моделей, определении новых свойств процесса при изучении его модели.

Высокий уровень характеризуется готовностью учащихся к моделированию действительности, осознанием модельного характера окружающей действительности. Модель оценивается не только по предоставлению новых знаний об изучаемом объекте или явлении, но и по владению закономерностями процесса изучения и имеющимися знаниями об этой системе, по логичности исторических хронологий и умениям гармонизировать историю с будущей деятельностью. При этом предполагается, что он предвидит экстремальные и нестандартные ситуации, требующие от него готовности к эффективному творческому решению своих задач, моделированию этих ситуаций и умения принимать творческие, самостоятельные решения.

Выбранные степени позволяют спроектировать процесс их поэтапного формирования при преподавании предмета. Индивидуальный подход к управлению человеческим капиталом предполагает систематизацию цели образовательного процесса, дальнейшее совершенствование знаний и умений, необходимых для решения задач на основе интеграции естественнонаучных, общепрофессиональных и специальных дисциплин.

При применении моделирования к процессу обучения целесообразно различать шесть подходов:

1) эпистемологический подход (модель – благодаря особым свойствам, возникающим на основе теории подобия – воплощается как объект в процессе познания оригинала);

2) экспериментальная (замена реального объекта моделью в учебно-научном эксперименте);

3) модельно-информационная (информация – материальная основа обучения, в процессе обучения эта основа подвергается обработке, передаче, количественной оценке);

4) дидактические (на основе соответствующих количественных и качественных характеристик дается аналитическое или графическое описание той или иной части процесса подготовки специалиста средствами модели);

5) общеметодологические (все большее значение приобретает связь между специальными естественно-техническими проблемами и философией);

6) социально-психологический (подход к живой природе на основе видения ее как большой системы. Этот аспект выражает в себе моделирование личности обучающегося, а отсюда – моделирование обучающихся как конкретных производственных групп.

Используя вышесказанное, мы разработали методическую модель управления человеческим капиталом. Методическая модель позволяет обосновать структурно-функциональные аспекты построения терминологического аппарата и методологических подходов. Функциональный аспект предлагаемой нами методической модели обеспечивается тем, что структура модели состоит из пяти основных компонентов, каждый из компонентов в ней выполняет определенные задачи. Структурная-определяет компонентный состав структурной модели.

Данная модель является необходимой базой знаний в образовательном процессе, шаблоном, обеспечивающим успешное решение возникающих проблемных ситуаций, моделирование действительности направлено на формирование умений и навыков, обеспечение организационно-педагогических условий подготовки к профессиональной деятельности, контроль за образованием, управление человеческим капиталом в целом.

Целевые, содержательные, организационно-процессуальные, диагностические и результативные компоненты методической модели обеспечивают последовательное развитие взаимосвязанной и информационно-коммуникативной компетентности и, как следствие, развитие личностных качеств прогнозируемого педагога. В целевом компоненте на основе социального спроса направлено обеспечение готовности будущих учителей к выполнению своих профессиональных обязанностей, изложенных в квалификационных требованиях к направлению образования, выполнению задач, определенных Законом Республики Узбекистан “Об образовании”, концепциями модернизации высшего образования, определены педагогико-организационные условия, выбраны формы, средства и методы обучения. В технологически-процессной составляющей реализуется структурная структура управления человеческим капиталом, процесс от контроля образовательных результатов до коррекции содержания образования. В диагностическом компоненте разрабатываются этапы, критерии оценки и уровни проведенного тестирования педагогического опыта.

Основным компонентом управления человеческим капиталом является комплекс дидактических средств, способствующих развитию познавательных способностей и непосредственному формированию навыков будущих педагогов,

а также способствующих широкому применению приобретенных знаний. Выбор дидактических средств в этом процессе осуществляется в зависимости от целей, методов, содержания обучения, особенностей изучаемого учебного материала и материально-технического оснащения учебного процесса.

Целевой, содержательный, процессный, диагностический и результирующий компоненты взаимосвязаны, их последовательное или параллельное ведение обеспечивает развитие личностных и профессиональных компетенций высокого уровня. В содержательной составляющей через задачи, принципы, подходы ставится цель довести научный капитал студента на каждом этапе до этапов его обеспечения, а также нормативных требований.

Подводя итог, можно сказать, что дидактическими средствами обучения служат средства, обеспечивающие капитал обучающихся их знаниям, входящие в состав сенсомоторных стимулов, воздействующих на органы чувств и способствующих прямому и косвенному познанию мира. Средства обучения отражаются с учетом общих закономерностей дидактики, степени готовности обучающихся к восприятию информации, относящейся к учебным предметам, направлениям их будущей профессиональной деятельности.

Список использованной литературы:

1. Амстронг, М. Практика управления человеческими ресурсами /м. Amstrong. - СПб.,: Питер, 2004. — 825 С.
2. Багов, В.Р. Управление интеллектуальным капиталом: учебное пособие / В.Р. Багов, Е.Д. Селезнев, Б.С. Ступаков. - М.: Кэмерон, 2006. - 248 С.
3. Бовин, А.А. Управление инновациями в организациях: учебное пособие / А.А. Бовин, Л.Й. Чередникова, В.А. Якимовича. — М.: Омега-Л., 2009. -220 С.
4. Черненко И.М. Стратегическое управление человеческим капиталом промышленного предприятия: Дис. ... канд. ЭК. наук. Екат., 2014. — 241 С.
5. Горелов, Н.А. Антикризисное управление человеческими ресурсами / Н.А. Горелова. - СПб.,: Питер, 2010. — 429 С.
6. Адамуров Б. В. Система развития навыков проектирования образовательного процесса у будущих педагогов на основе акмеологического подхода: пед. наука. док. (DSc) diss. Автореф.-Т.,2018. -Б.15.
7. Нуреев, Р.М. Развитие человеческого капитала как реальная альтернатива сиревой специализации страны / Р.М. Нуреев / / экономический вестник Ростовского государственного университета. — 2007. - Том 5. №3. — С. 111-129.
8. Одегов, Ю.Г. Чем управление человеческими ресурсами принципиально отличается от управления персоналом? / Ю.Г. Одегов // Вестник Омского Университета. Серия»Экономика". — 2018. — № 1 (61). — С. 106-114.
9. Плячкайтене, И.М. Становление и развитие теории человеческого капитала / / молодой ученый. — 2011. — №7. Т.1. — С. 102-104.

ADABIYOTSHUNOSLIKDA QISSA POETIKASI

Suleymanova Sevara Abdumalikovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Qissa janrida doimo ruhiyat bilan bog'liq muammolar bo'lishini e'tiborga olsak, masala mohiyati chandon oydinlashadi. Muammoning faqat bir tomonlama o'rganilishi biz olib borayotgan tadqiqotning o'lchovlariga unchalik to'g'ri kelmasligi aniq.

Kalit so'zlar: Qissa, janr, ruhiyat, nazariya, nasr, adabiyotshunoslik, poetika

Qissa janrida doimo ruhiyat bilan bog'liq muammolar bo'lishini e'tiborga olsak, masala mohiyati chandon oydinlashadi. Muammoning faqat bir tomonlama o'rganilishi biz olib borayotgan tadqiqotning o'lchovlariga unchalik to'g'ri kelmasligi aniq. Chunki XX asrning 20- yillaridan boshlangan sinfiylik va konfliksizlik nazariyasi, ikkinchidan, sho'ro siyosatining tutumlari masalaga teran kirib borish imkonini chegaralab qo'ygandi. 60-yillardan keyingina erkinlik shabadalari (unda ham to'laonli tamoyil emas!) muammoga aynanlik nuqtai nazaridan borishga imkon bera boshladi. Unda ham sobiq ittifoq hududlarida yashab ijod qilgan, temir qonuniyat negizidan tashqariga unchalik erkin chiqa olmagan yozuvchilar ko'pincha urush va uning salbiy oqibatlarini yuzaga chiqarishning uddasidan chiqa oldi xolos! Ch.Aytmatovning "Jamila", O.Yoqubovning "Muqaddas", P.Qodirovning "Erk", "Qadrim", O'.Umarbekovning "Sevgim, sevgilim", Sh.Xolmirzayevning "To'lqinlar", O'.Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" kabi o'nlab qissalarda o'sha davrning odamlari ruhiyatidagi katta-kichik evrilishlar, o'zlikni tanish, oila va shaxslararo munosabatlar talqini shular jumlasidandir. 70-yillardan keyingi M.M.Do'st, E.A'zam, A.A'zam, A.Dilmurod kabi yozuvchilar uslubida tamomila boshqacha obrazlar sistemasi talqini yuzaga kela boshladi. Nihoyat 90-yillardan keyin badiiy adabiyotda shaxsning o'zini tasvirlash, o'zining muammolarini turli usul va yo'sinlarda namoyish qilish tradisiyasi o'lchov tig'izligini ranginlashtirdi. Bularning ko'pchiligi yangi odam obrazini ruhiy talqin qilish masalasiga sho'ng'ib ketishi kuzatiladi. Demak, muammoga turli davrlar dunyoqarashi, amaldagi kuchlar taqdimnomasidek baholash ishonchni oqlashi tayin.

Lekin baribir, qissa janrining dominantligi hisobiga qissa bo'lib qolaveradi"¹. Binobarin, qissaning epik tur orasidagi ifoda shakllari o'z mohiyatiga ko'ra davrning ehtiyoji sabab o'zgarishga mahkumligi bilan ham ajralib turadi. Boshqacha aytganda, bitta qahramon atrofida birlashayotgan voqelik yozuvchi ijodiy konsepsiyasi hosilasidir.

Unda bir-birini to'ldiruvchi kategoriyalar o'z ifodasini topishi muhim: "Povest janriga mansub bo'lgan asarlarda qamrab olingan davrdan qat'i nazar bosh qahramon hayotida mavjud bo'lgan barcha voqealarning batafsil tasvirlanishi shart emas. Yozuvchi o'sha voqealarning eng asosiylarini tanlab oladi, qaysiki bosh qahramonning xarakterini ochishga qulay kelgan, asar g'oyasini ochishga xizmat qiladigan

¹ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/marhabo-qochqorova-xurshid-dostmuhammad-qissachiligida-metafora-va-timsolli-ishoralar/>

voqealarnigina kengroq tasvirlaydi”². Haqiqatdan ham, povestda poetik qonuniyat qisadagi singari murakkab va olamshumul masalalarni idroklashga keng imkon bermaydi. Yozuvchi muayyan voqelik fonida harakatlanadi. Davrning og‘riqlari va muammolari ma’lum bir sinfiy takomilda ayonlasha boradi. Qissada – vaqt nisbatan chegaralansa-da, qahramonning botiniy olamidagi evrilishlar asosan inson konsepsiyasi negizida talqin etiladi. U davrni ham, zamonni ham, makonni ham, tarixiy aspektidagi rolini ham maromiga bo‘ysundiradi, natijada, davrning manzarasi haqqoniy qiyofada o‘quvchi ko‘zi o‘ngida qayta jonlanadi. Dos.M.Boboxonov masalaga quyidagi rakursdan turib baho berishni ma’qul ko‘rganligida masala mohiyatiga yaqinlashish kuzatiladi. Muallif yozishicha: “Zamonaviy adabiyotshunoslikda muammo markaziga hazrati insonni qo‘yib gavdalandirish (antroposentrizm) an’ansi strukturalizmdan qolgan meros sifatida “gereosentrizm” tendensiyasiga, shaxsning o‘z-o‘zini anglash jarayoniga diqqatning kuchayishiga bo‘shatib berdi. Bugungi kunda insonni adabiy asar qahramoni sifatida o‘rganish turli yo‘nalishlar: ma’naviy-falsafiy muammolarning badiiy talqini, janr, kompozisiya, mavzu kabi kategoriyalar darajasida amalga oshirilmoqda”³. Binobarin, psixologik talqin birgina qahramon olamida emas, yozuvchi ruhiyatidan o‘tib chiqqan iltirob alangasidir. U qissa syujetida ishtirok etayotgan barcha qahramonlar tabiatida – muvozanat birligini taqozolashga imkon beradi. Agar bordi-yu, bosh qahramon atrofida uyushgan tasvir metodologiyasiga zo‘r zalvorli muammo yuksalanaversa, voqelik o‘z-o‘zidan sochilib ketishi tayin. Ayniqsa, ishq haqida bitilgan qissalarda yozuvchilar qaysi tomonga muhabbat qo‘yishi dinamik o‘shishda ochiq-oshkor seziladi. Bu emotsiya asta-sekinlik bilan qahramonda rivojlanib, o‘quvchi ko‘ngliga kirib olishi tayin. Demak, yozuvchi – davrning manzarasini, qahramonning ruhiyatini. Voqelik oqimini bir maxrajda jilvalantirmasa, ijodiy maqsad konseptual maydonga aylanmaydi. Aniqlikdan – noaniqlik kelib chiqishi tayin. Murakkab tasvir shtrixlarida bular ro‘y-rost ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘lishi hech gap emas.

“Adabiyot tarixidan ma’lumki, har qanday adabiy usuldagi yangilik o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi: adabiyotdagi yangi oqimlar, an’analar o‘z davrining estetik, ijtimoiy, g‘oyaviy, mafkuraviy, tafakkur ehtiyoji, in’ikosi sifatida so‘z san’atida bo‘y ko‘rsatadi. Qadimgi davrda adabiyot yoki keyingi yuz yillik adabiyotmi, qaysi davr adabiyoti bo‘lishidan qat’i nazar, yangi bir oqimlar, so‘zga munosabat, shakliy va badiiy izlanishlar aslida o‘sha jamiyatda paydo bo‘layotgan ijtimoiy fikr va ijtimoiy ong ostining ehtiyojini namoyon qiladi”⁴. Anglashiladiki, tarixiy-ijtimoiy jarayonning o‘z-o‘zidan yuzaga chiqmasligi mumkin. Unda davrning qiyofasi aks etadi. Davr esa odamlarning faol ijtimoiy yashash turmushining haqiqiy manzarasida ko‘zga tashlanadi.

Shunday ekan, L.Bo‘rixon bir vaqtning o‘zida ikki tomonga ham o‘z munosabatini simpatiya, antipatiyasini bildirib boradi. Jamiyatning boshlab bergan soxta va nurli yo‘llarining aslida puch orzu ekanligini ishongan olomonning haqiqiy ruhiy-ijtimoiy yashash ko‘nikmalari. Ikkinchisi, mafkuraning o‘ta uzoqni ko‘zlab,

² Аббасов.А. Ўзбек повести. – Т: Фан, 1973. – Б. 9.

³ Бобохонов М. Ўзбек киссаларида бадий психологизм. Монография. –Т: “Баёз. 2014. –Б.15.

⁴ Лучанов М.Ф.История мировой литературы. – Омск, 2004.

bo'ysundirib yashashga odatlantirilgan geosiyosiy xunrezliklarining asl qiyofasini fosh qilish mexnizmining talqini.

Shunday ekan, yozuvchi L.Bo'rixonning "Sirli muallim" qissasining yozilganiga yigirma yillar bo'ldi. Unda yozuvchi "Jaziramadagi odamlar" romandiga bosh qahramon O'roq Umurzoqovning qahramonlarcha halok bo'gan urush va uning qishloq hayoti, ahli uchun nihoyatda ayanchli ta'siri gavdalandiriladi.

ILMIY-NAZARIY ADABIYOTLAR

1. Абборов.А. Ўзбек повести. – Т: Фан, 1973. – Б. 9.
- 2 Арасту. Поэтика. –Т: "Янги аср авлоди". 2018. –Б.34.
3. Бобохонов М. Ўзбек қиссаларида бадий психологизм. Монография. –Т: "Баёз. 2014. –Б.15.
4. Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. –Л.Советский писател, 1971. – С.300.
5. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. Книга для учителя. –М. Просвещение. 1988. –С.18-19.
6. Лучанов М.Ф.История мировой литературы. – Омск, 2004.
7. Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). Филол.ан.док.дисс. –Т.: 2020. –Б.15.
- 8.Бобохонов М. Ўзбек қиссаларида бадий психологизм. Монография. –Т: "Баёз. 2014. –Б.9.

PSIXOLOGIYADA EMPATIYA TUSHUNCHASI

G'aybullayeva Zilola Xushnud qizi

Psi-23/2 –guruh talabasi

Ho'sinova Saodatjon Umirbek qizi

Psi-23/2 –guruh talabasi

Ilmiy malhatchi: Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'smirlik davriga xos bo'lgan xususiyatlar hamda empatiya atamasining ta'rifi keltirilgan. Shuningdek, empatiya - bu aqlni vazminlik bilan o'qiy oladigan, biroq boshqa odamning hissiy holatini bevosita birinchi shaxsdan tushuna oladigan telepati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Empatiya, o'smirlik davri, kognitiv komponent, emotsional komponent, tuyg'ular.

Hozirgi davr kishisi dunyoda ongli yashash uchun o'zining qiymat-semantik makonini aniqlash uchun o'zini insoniy qadriyatlar olamiga singdirishga majburdir. Ushbu singdirish hissiy kechinmalarninig to'g'ridan-to'g'ri bevosita ishtirokida amalga oshiriladi. Va shunda umuminsoniy qadriyatlar insonning mavjud hayotiy munosabatlarida harakat qilish uchun qabul qilinadi, unga haqiqatga nisbatan nuqtai nazarni o'rnatishga harakat qiladi. Rahmdillikka moyillik hissiyemotsional tajribani yaxshilash, empatiya, empatik xulq-atvorni shakllantirish uchun ichki zaxiralarni ochishga imkon beradi.

O'zaro ta'sirning natijaviy apparati sifatida empatiya hayvonlar jamiyatini tark etganidan beri odamlar tomonidan qo'llaniladi. Guruhlarga birlashgan odamlarning asl uyushmalarining omon qolishi uchun yordam berish, atrofdagi odamlar bilan til topishish va atrof-muhitga moslashish san'ati zarur bo'ldi.

Empatiya - bu zamonaviy psixologiyaning o'ziga xos turi bo'lib, u odamning o'zini boshqa shaxs o'rnida tasavvur qilish, boshqa birovning his-tuyg'ulari, istaklari, g'oyalari va harakatlarini refleks darajasida amalga oshirish, boshqalarga yaxshi munosabatda bo'lish qobiliyatini anglatadi. unga o'xshash his-tuyg'ularni his qilish, uni o'z vaqtida hissiy holatini anglash va tan olishdir. Suhbatdoshga nisbatan empatiyani ifodalash, uning nuqtai nazaridan vaziyatni ko'rish, uning hissiy holatini "tinglash" qobiliyatiga ega bo'lishini anglatadi.

O'zga insonlarning tashvishlari, his-tuyg'ulari va his-tuyg'ularini o'z shaxsiy his-tuyg'ulari nuqtai nazaridan tushuna oladigan va qabul qila oladigan shaxs empat deb ataladi.

Aytish mumkinki, empatiya - bu aqlni vazminlik bilan o'qiy oladigan, biroq boshqa odamning hissiy holatini bevosita birinchi shaxsdan tushuna oladigan telepatidir. Shu sababli bu borada empatiya darajasi kuchli insonlarda agar ushbu fenomen tufayli ular o'zlarining his-tuyg'ularini, qoida tariqasida, qarindoshlari va unga yaqin odamlarning his-tuyg'ularidan farqlashni va tan olishni to'xtatsalar, turli psixologik buzilishlar rivojlanadi.

Bundan tashqari, ba'zi hollarda, kimdir bilan o'zini o'zi identifikatsiya qilish jarayonida shaxsning shaxsiyati "cho'kadi", bu ruhiy tushkunlik manbai bo'lib xizmat

qilishi mumkin va shaxsning bunday ikkilanishni hal qilishning - o'z joniga qasd qilish kabi so'nggi chorasiga o'tish shakliga moyil bo'ladi.

“Empatiya” atamasi psixologiyaga ichki dinamizmni ko'rsatish uchun kiritilgan bo'lib, uning natijasi o'zga insonning holatini ongsiz ravishda anglab yetishdir. Empatiyaning zamonaviy formulalari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- boshqa shaxsning fikr va his-tuyg'ularining ichki holatini bilish va tushunish;
- ikkinchisi bo'lgan hissiy holatlardagi “hissiyot”;
- Tasavvur yordamida boshqa odamning his-tuyg'ularini qayta qurish faoliyati;
- Inson o'zini boshqa odam o'rnida qanday tutishi mumkinligi haqida fikr yuritish;
- Boshqa odamning azobiga javoban qayg'u;
- boshqa shaxsga qaratilgan, shaxsning boshqasining baxti haqidagi tushunchasiga mos keladigan hissiy teskari aloqa va boshqalar.

Boshqachasiga aytganda, haqiqiy empatiya nafaqat yuqori hissiy qabul qilishni, balki yuqori darajadagi xabardorlikni ham o'z ichiga oladi. Birinchi ikkita komponent asosida boshqasiga yordam berish uchun rag'bat paydo bo'ladi, bu esa bolani aniq harakatlarga undaydi. Natijada, empatiya darajasining oshishi quyidagilardan iborat degan xulosaga kelishimiz mumkin:

- Kognitiv komponent, bu muayyan vaziyatda boshqa odamning his-tuyg'ularini tushunishni o'z ichiga oladi.
- emotsional komponent empatiyadir.
- Boshqa odamning his-tuyg'ulari va holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan harakatlarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar komponenti.

Shuni ta'kidlash kerakki, empatiya tushunchasini aniqlash uchun universal belgilar mavjud emas. Siz empatiyaning mohiyatini ochib beradigan ba'zi bir kumulyativ fazilatlarni aniqlashingiz mumkin.

Haqiqiy empatiya nafaqat boshqalarga nisbatan yuqori hissiy sezgirlikni o'z ichiga oladi, balki boshqa odamlarni tushunishning yuqori qiymatini ham anglatadi. Hamdardlik va empatiyaga asoslanib, hissa qo'shish uchun turtki mavjud, bu impuls turli xil harakatlarni rag'batlantiradi.

Natijada, empatiya darajasining oshishi quyidagilardan iborat degan xulosaga kelishimiz mumkin:

- Kognitiv komponent, ma'lum bir vaziyatda boshqa odamning his-tuyg'ularini tushunishni o'z ichiga oladi.
- emotsional komponent empatiyadir.
- Boshqa odamning his-tuyg'ulari va holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan harakatlarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar komponenti.

Bolaning axloqiy fazilatlarini tarbiyalash va rivojlantirish hissiy tarkibiy qismdan boshlanishi kerak, chunki hech qanday o'zaro ta'sir va aloqa etarli darajada samarali bo'lmaydi, chunki uning ishtirokchilari raqibning hissiy holatini taniy olmaydilar yoki ularni jilovlay olmaydilar. hissiyotlarning o'ziga xos ko'rinishlari.

O'z sezgilar va his-tuyg'ularini tushunish shaxsning shakllanishi va rivojlanishidagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Garchi bu jarayon juda oddiy bo'lib tuyulsa-da, bolaning his-tuyg'ularini to'g'ri tanib olish va ularga yetkazish g'oyat qiyin. Bu sohada ma'lum bilim va ma'lum darajadagi rivojlanishni talab qiladi.

Inson his-tuyg'ulari qanchalik xilma-xilligini tushunsa, u boshqa odamning holatini yaxshiroq va to'g'ri tushuna oladi.

Tuyg'ular o'z vaziyatini yo'qotadi va yanada chuqurroq mantiqiy tarkibga aylanadi, ular kutilgan ichki fikrlar yoki sharoitlarga javoban tug'iladi. Yosh o'quvchida hissiy bashorat shakllanadi, bu uni ishlashning mumkin bo'lgan oqibatlariga haqida tashvishlanishga, boshqa shaxslarning uning harakatlariga munosabatini kutishga majbur qiladi. Shuning uchun bolaning faoliyatida hissiyotlarning o'zni sezilarli darajada o'zgaradi.

Binobarin, boshlang'ich maktab yoshidagi hissiy taraqqiyotning xususiyatlarini ta'kidlash mumkin, bolalar hissiyotlar tasvirining ijtimoiy modellarini o'rganadilar; bolaning ishida his-tuyg'ularning ma'nosi o'zgaradi, hissiy bashorat rivojlanadi; his-tuyg'ular birmuncha tushunarli, umumlashtirilgan, hushyor, erkin, vaziyatga bog'liq emas: axloqiy, aqliy, estetik kabi yuksak his-tuyg'ular rivojlanadi.

Xarakterning axloqiy xususiyatlari bilan tanishish bolaga yordam ko'rsatadi, shu jumladan, shaxsning axloqiy va axloqsiz tomonlari haqida o'ylashga, yaxshi va yomonni farqlashga, o'rnak orqali kamsitishni his qilishga yordam beradi. Uyatchan bola dadil bo'lishga, dushmanona kayfiyatdagi bola esa hamdard va mehribon bo'lishga intiladi.

Kerakli vaziyatlarning shakllanishi, hissiy qulaylik holati shaxsiyatning rivojlanishi va shakllanish tadrijiga ta'sir ko'rsatadi. Yetti yoshga kelib, ko'pchilik bolalar tengdoshiga yordam berish, hech qanday sababsiz sovg'a berish yoki janjalga berilish uchun oldindan aytib bo'lmaydigan va beg'araz istaklarga ega. Uning ishida xolis hissiy ishtirok etish, tengdoshning bola uchun nafaqat o'zi bilan taqqoslash ob'ekti, balki qimmatli, yaxlit shaxs bo'la boshlaganligini ko'rsatishi mumkin. Taxmin qilish mumkinki, tengdoshlar bilan munosabatlardagi bu o'zgarishlar kichik yoshdagi o'quvchining o'zini-o'zi anglashi va o'zini-o'zi anglashidagi muayyan o'zgarishlarni ifodalaydi. Shaxslarning hissiy holatiga yo'naltirilganlik birlashgan qo'shma ishning zaruriy talabi sifatida tushuniladi. Empatiya tuyg'usini shakllantirish shaxsiyatni rivojlantirishning ajralmas qismini, shaxsga shaxslararo munosabatlar madaniyatini o'rgatish, bolaning shaxsiy his-tuyg'ularini va tashvishlarini boshqarish qobiliyatini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Birgalikda ishlashning o'ziga xos xususiyati ta'lim faoliyatini yaratish imkoniyati bilan belgilanadi, u shaxsning hissiy holatlari va his-tuyg'ularini tushunish, boshqa shaxsning fikrlarini tushunish va tan olish, qo'llab-quvvatlash va yordam ko'rsatish uchun impulsni kafolatlaydigan turli xil shaxslararo aloqalarni tashkil etish, shaxslararo munosabatlarni tashkil etish qobiliyatiga qaratiladi.

Adabiyotlar:

1. Krayg, G. Psixologiya [Tekst] / G. Krayg. – SPb.: Piter, 2002. 992 s.
2. Juraev, D. Pedagogika va psixologiya [Tekst] / D. Juraev // Toshkent, 2015.

O‘SMIRLIK DAVRIDA EMPATIYANING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Iriqulova Zuhra
Psi-24/2 –guruh talabasi
Ibodullayeva Elmira
Psi-24/2 –guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada o'smir bolalarda empatiya va qadriyat yo'nalishini rivojlantirish muammosi ko'rib chiqiladi. Empatiya darajalari, shuningdek, o'smirlarga xos bo'lgan qadriyatlar aniqlangan. O'smir bolalarda empatiyani rivojlantirish dasturi boshqa shaxsga nisbatan qadriyatlarga asoslangan munosabatni shakllantirish orqali taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: Empatiya, o'smirlik, qadriyat yo'nalishlari.

Hozirgi vaqtda boshqa odamning his-tuyg'ularini, fikrlarini va munosabatlarini tushunish, uning ichki dunyosini adekvat idrok etish, semantik va hissiy nuanslarni saqlagan holda, baholash va qoralashsiz katta ahamiyatga ega. Birovning muammolariga empatiya va sezgir bo'lish qobiliyati shaxslararo munosabatlarni o'rnatish uchun zarur shartlardan biridir. Bugungi kunda shafqatsizlik, tajovuzkorlik va boshqa odamlarning tajribalariga hissiy jihatdan javob bera olmaydigan bolalar soni ortib bormoqda.

O'smirlik - tengdoshlarga nisbatan hamdardlik, dunyoqarash va dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirishga yuqori sezgirlik davri bo'lib, unda qadriyatlar yo'nalishlari psixologik yangi shakllar sifatida ishlaydi. Boshqa odamning tajribasiga javob berish qobiliyati sifatida empatiya shaxsning shaxsiyati va uning qadriyatlari tuzilishi bilan bog'liq.

Aynan o'smirlik davrida qiziqishlarning ma'lum doirasi o'rnatila boshlaydi, ular asta-sekin ma'lum bir barqarorlikka ega bo'ladi. Qiziqishlarning bu doirasi o'smirning qadriyat yo'nalishlarining psixologik asosidir. Boshqa odamlarning psixologik tajribalariga va o'ziga bo'lgan qiziqish rivojlanadi.

Shunday qilib, o'smirlarning empatiyasi va qadriyat yo'nalishini rivojlantirish xususiyatlarini o'rganishning dolzarbligi axloqiy qadriyatlar, hayotga qarash va boshqa odamlar bilan munosabatlardagi o'zgarishlarning intensivligi bilan belgilanadi.

Bizning ma'lumotlarimiz shuni ko'rsatadiki, sub'ektlarning 9,8 foizi empatiyaning yuqori darajasiga ega, bu odam boshqalarning ehtiyojlari va muammolariga sezgir, hissiy jihatdan sezgir, ochiqko'ngil, boshqalar bilan tezda aloqa o'rnatadi va umumiy til topadi. 74,5% normal (o'rtacha) darajani ko'rsatdi, bu esa bu odamlarning ayniqsa sezgir shaxslar emasligini ko'rsatadi. Shaxslararo munosabatlarda odamlar o'zlarining shaxsiy taassurotlariga ishonishdan ko'ra, boshqalarni xatti-harakatlariga qarab baholaydilar. 15,7% - past daraja, bu odam odamlar bilan aloqa o'rnatishda qiynalayotganini va katta kompaniyada o'zini noqulay his qilishini ko'rsatadi. Boshqalarning harakatlaridagi hissiy ko'rinishlar ba'zan bu o'smirlar uchun tushunarsiz

va ma'nosiz ko'rinadi. Hech bir mavzuda empatiyaning juda yuqori va juda past darajalari aniqlanmadi.

Shunday qilib, olingan natijalar o'smirlarning aksariyati asosan empatiyaning o'rtacha darajasida ekanligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Bu shuni anglatadiki, o'smirlar kerakli vaqtda unga muhtoj bo'lgan odamga hamdardlik ko'rsatishga tayyor, lekin ayni paytda ular uning ahvoliga to'liq singib ketishga intilmaydilar.

Qadriyat yo'nalishlarini o'rganish olti shkala bo'yicha natijalarning tavsifini o'z ichiga oladi: bilish, boshqa qiymat, o'z-o'zini qadrlash, mas'uliyat. Qadriyat sifatidagi "idrok" shkalasida 51% yuqori darajaga ega bo'lib, bunday o'quvchilarning bilishga bo'lgan ehtiyoji katta ekanligidan dalolat beradi va bilish jarayoni ijobiy his-tuyg'ularni keltirib chiqaradi. Mavzularning 39,2 foizida o'rtacha daraja aniqlandi, bu o'quvchilar o'rganishning muhimligini, umuman bilimni hayotdagi qadriyat sifatida tushunishlarini, ammo bu qiymatga nisbatan to'liq ongli ravishda o'zini o'zi belgilash sodir bo'lmaganligini ko'rsatadi. 9,8% past darajani ko'rsatdi, bu esa bilishga bo'lgan ehtiyoj minimal yoki deyarli yo'qligini ko'rsatadi.

"Boshqa qiymat" shkalasi bo'yicha sub'ektlarning 31,4 foizi yuqori darajaga ega, bu o'smirlarda boshqa shaxsning individualligini qadriyat sifatida qabul qilish rivojlanganligini tasdiqlaydi. 54,9% sub'ektlarda o'rtacha daraja aniqlandi, bu o'smirlarning boshqalarning individualligini qadriyat sifatida tan olishini va boshqa odamlarni hurmat qilishga harakat qilishini ko'rsatadi. 13,7% past darajani ko'rsatdi, bu boshqa shaxsni qadriyat va individuallik sifatida shakllanmagan idrokni, boshqalarga hurmatli munosabatni, ular bilan mehribon va konstruktiv muloqot qilish qobiliyatini ko'rsatadi.

"Men qadrlayman" shkalasi bo'yicha 39,2% sub'ektlar yuqori darajani ko'rsatdi, bu o'quvchining "men" ning shakllangan tuzilishini, o'ziga shaxs va individuallik sifatida hurmatli munosabatini ko'rsatadi. Fanlarning 60,8 foizi o'rtacha darajaga ega, bu esa talabaning o'zining "men"ga katta e'tibor qaratishini va o'z-o'zini idrok etishda ijobiy bo'lishga harakat qilishini ko'rsatadi. Hech kim "I-qiymati" shkalasi bo'yicha past darajaga ega bo'lmagan.

"Mas'uliyat" shkalasi bo'yicha sub'ektlarning 25,5 foizi yuqori darajani ko'rsatdi, bu o'smirlarda mas'uliyat ayniqsa muhim shaxsiy xususiyat sifatida rivojlanganligini, shuningdek, mas'uliyatni o'z-o'zini namoyon qiluvchi shaxsning asosiy tarkibiy qismi sifatida tan olishini ko'rsatadi. 68,6% sub'ektlarda o'rtacha daraja kuzatilgan, bu o'smirlar mas'uliyatning muhimligini shaxsiy sifat sifatida tan olishlarini va uni o'z harakatlarida ko'rsatishga intilishlarini ko'rsatadi. 5,9% past darajani ko'rsatdi, bu o'quvchilarning o'zi va hayotdagi xatti-harakatlari uchun javobgar bo'lishi zarurligini juda kam darajada yoki umuman bilmasligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, olingan ma'lumotlar ko'pchilik bolalar uchun boshqa qiymat, o'zini o'zi qadrlash va mas'uliyat o'rtacha darajada degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Qadriyatga yo'naltirilganlik - bolalarning yarmida bilish yuqori darajada.

Shunday qilib, bizning tadqiqotimiz natijasida, boshqalarning ehtiyojlari va muammolariga sezgir bo'lgan o'smirlar hissiy jihatdan sezgir, hamdardlik bildiradi - ular boshqa birovning shaxsiyatiga hurmat bilan munosabatda bo'lishadi va boshqa shaxsning individualligini qadriyat sifatida qabul qiladilar. . Boshqalarning hissiy

kechinmalariga befarq bo'lgan o'smirlar - ularda boshqa shaxsni qadriyat va individuallik sifatida qabul qilish shakllanmagan.

Olingan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, o'smirlarda empatiya darajasini oshirish uchun tizimli, maqsadli ish kerak, bu ishning keyingi yo'nalishini belgilab berdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'spirinlarda boshqa shaxsga qadriyatga asoslangan munosabatni shakllantirish orqali empatiyani rivojlantirishga qaratilgan tuzatish va rivojlanish dasturi ishlab chiqilgan. Vazifalar sifatida quyidagi ish bosqichlari belgilandi: o'smirlarda boshqa shaxs haqidagi g'oyalarni qadriyat sifatida shakllantirish; boshqa odamning his-tuyg'ulariga ongli munosabatni rivojlantirish; boshqa shaxsga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantirishga ko'maklashish; boshqa odamga hamdardlik va hamdardlik bildirish qobiliyatini yaxshilash.

Shunday qilib, bizning tadqiqotlarimiz quyidagi xulosalarga kelishimizga imkon berdi:

1. Boshqa shaxsga qadriyatga asoslangan munosabatni shakllantirish orqali empatiyani rivojlantirish dasturining samaradorligi haqidagi taxmin eksperimental tarzda tasdiqlandi.

2. O'smirlarda boshqa shaxsga nisbatan qadriyatga asoslangan munosabatni shakllantirish orqali empatiyani rivojlantirishga shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ta'sirlarning tamoyillari, mexanizmlari, strategiyalari va taktikalariga asoslangan nazariy asoslangan nazariy va amaliy dastur yordam beradi.

3. Boshqa shaxsga nisbatan qadriyatga asoslangan munosabatni shakllantirish orqali o'smirlarda empatiyani rivojlantirishga guruh va juftlik topshiriqlari yordam beradi, ular turli faoliyatda birgalikda harakat qiladilar, ularning xatti-harakatlari boshqa guruh tomonidan qanday qabul qilinganligi haqida ma'lumot oladi; a'zolar va o'z tajribalarini tahlil qilish orqali o'zlari va imkoniyatlari haqida bilimlarni kengaytiradilar.

Adabiyotlar:

1. Krayg, G. Psixologiya [Tekst] / G. Krayg. – SPb.: Piter, 2002. 992 s.
2. Juraev, D. Pedagogika va psixologiya [Tekst] / D. Juraev // Toshkent, 2015.

JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING HAYOTIDA TIBBIY BILIMLARNING O'RNI

Akbarova D. R.

Teacher at Tashkent State pedagogical University

Abdurakmonov Sh. Y.

student, Tashkent State pedagogical University

Yoldoshev A.A.

student, Tashkent State pedagogical University

Аннотация. Maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchilarining hayotida tibbiy bilimlarning zarurligi va ahamiyati bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Ayniqsa talaba-yoshlarning bilimini tibbiy bilimlar bilan boyitishning bir nechta asosiy jihatlari va asoslari batafsil yoritilgan.

Annotation. The article provides information on the need and importance of medical knowledge in the life of physical education teachers. Several key aspects and fundamentals of enriching student-youth knowledge with medical knowledge in particular are covered in detail.

Калит сўзлар: жисмоний тарбия ўқитувчиси, тиббий билимлар, восита, шакл, метод, жароҳат, реабилитация, тиббий ёрдам, соғлиқни сақлаш, озиқланиш, стресс, мотивация.

Keywords: physical education teacher, medical knowledge, tool, form, method, injury, rehabilitation, medical care, health, nutrition, stress, motivation.

Sog'lom yurt ahli davlatni qudratli qiladi. Yoshlarimiz tibbiy madaniyati kun sayin ortib bormoqda, lekin shunga qaramay ba'zi talabalar va o'qituvchilar tibbiyot sohasiga oid bilimlari yetarlicha emasligiga guvohi bo'lamiz. Maqolada ko'zlangan maqsad shuki, jismoniy tarbiya va sport yo'nalishdagi mutaxassislarni orasida kasalliklarni kelib chiqish sabablari va ularning profilaktikasi, oqibatlarini, kerak bo'lganda ularga tez tibbiy yordam xodimlari yetib kelguncha bo'lgan vaqtda yoki statsionargacha bo'lgan davrda zaruriy tibbiy yordam ko'rsata olishni, turli xil samarali texnologiyalar asosida pedagogik metodlar, vosita va shakllar orqali bilishi, shuningdek yetkazib berishi zarurligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining hayotida tibbiy bilimlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, tibbiy bilimlar nafaqat o'qituvchining professional faoliyatini, balki ularning shaxsiy hayotiga ham to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Quyida tibbiy bilimlarning jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun ahamiyatini ko'rsatadigan bir nechta asosiy jihatlari keltirilgan:

1. Sog'liqni saqlash: Jismoniy tarbiya o'qituvchilari talabalarining sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlash uchun avvalombor, zarur bo'lgan tibbiy bilimlarga ega bo'lishlari kerak. Bu bilimlar jarohatlarni oldini olish va to'g'ri rehabilitatsiya qilishga xizmat qiladi.

2. Jismoniy faoliyat va sog'liq: Tibbiy bilimlar jismoniy faoliyatning inson organizmiga qanday ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi. O'qituvchilar sport mashg'ulotlari va jismoniy tarbiya darslarida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda bu bilimlardan foydalanishlari mumkin.

3. Dori-darmonlar va ularning ta'siri: O'qituvchilar sportchilar yoki talabalar tomonidan ishlatiladigan dori-darmonlar haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak, chunki bu sportchilarning salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Turli xil dorilar mavjud bo'lib, ularni bir-biridan farqlay olishi zarur.

4. Psixologik jihatlar: Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish inson psixologiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilar psixologik jihatlarni tushunish orqali talabalar bilan samarali muloqot qila oladilar.

5. Fiziologiya va anatomiya: Jismoniy mashqlarning asoslarini tushunish uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bu o'qituvchilarga mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etishga yordam beradi.

6. Jarohatlar bilan ishlash: Tibbiyot bilimi jarohatlarga dastlabki yordam ko'rsatish, ularni aniqlash va davolanish jarayonlarini tushunishga imkon beradi. Har bir sportchi mashg'ulot jarayonida travma olishi mumkin va birinchi yordam ko'rsata olishi kerak.

7. Oziqlanish: Sportchilar va jismoniy faoliyat bilan shug'ullanuvchilar uchun to'g'ri oziqlanish muhimdir. O'qituvchilar ushbu sohada ham ma'lumotlarga ega bo'lishlari zarur.

Tibbiy bilim-inson salomatligini saqlash va mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish va davolashdan iborat bo'lgan odamlarning ilmiy va amaliy faoliyati sohasi bo'lib xizmat qiladi [2].

Hayotda turli xil tasodifiy holatlar kuzatilishi mumkin, ayniqsa, jismoniy tarbiya o'qituvchilar o'rtasida, shuningdek, jismoniy tarbiya mutaxassislari va shug'ullanuvchilarda jiddiy ro'y beradigan kasalliklar kuzatilishi mumkin. Masalan, nafasi qisishi, yurak yetishmovchiligi yoki jarohat olgan bemorga qanday birlamchi yordam ko'rsatishni ko'pchilik bilmaydi. Bu holatlarda tibbiy bilimga ega bo'lmaslik, yordam ko'rsatishdan qo'rqish yoki noto'g'ri harakat qilish bemorlarda qator asoratlarga sabab bo'lishi mumkin.

Xarri Bennett - sport tibbiyoti va reabilitasiya sohasida ilmiy tadqiqotlari bilan tanilgan olim sport tibbiyoti va reabilitasiya sohasida ilmiy tadqiqotlari bilan tanilgan mutaxassis. Harri Bennett 1892-yilda Michigan shtatining Ann Arbor shahrida tug'ilgan. [3] Umumiy maktablarga o'qishga kirdi. Bennett yoshligida boksda qatnasha boshladi va ba'zi shahar musobaqalarida g'alaba qozondi. Birinchi jahon urushida AQSh harbiy-dengiz kuchlarida xizmat qilgan. U sport travmasi davolashi, reabilitasiya usullari va sportchilarning faoliyatini optimallashtirish bo'yicha ko'plab ilmiy maqolalar yozgan. Bennetning tadqiqotlari sport tibbiyotida yangi metodlarni ishlab chiqishga katta ta'sir ko'rsatdi.

Jismoniy tarbiya yo'nalishdagi mutaxassislarga jismoniy darslarida tibbiy bilimlarni rivojlantirish, muhim vazifa bo'lib sanaladi. Shaxsning jismoniy tarbiyasini qadriyat deb bilish, u jismoniy tarbiyani vosita sifatida o'zlashtirishga doir jamoatchilik fikri va ehtiyojlarini rivojlantirishda ilg'or yo'nalishlarning ta'sirchan omillaridan biriga aylanishi lozim. Shaxsning jismoniy tarbiyasini shakllantirish jarayoni alohida jismoniy jihatlarning o'zini rivojlantirishni emas, balki ular orqali insonni har tomonlama va uyg'un ravishda rivojlantirish bilan birga ruhiy kamolotga tomon yetaklashni nazarda tutadi [4].

Jismoniy tarbiya darslarida tibbiy bilimlarni rivojlantirish, o'quvchilarga sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sport faoliyatining foydalari va zaruratini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda bir necha asosiy jihatlarni ko'rib chiqish mumkin:

1. Sog'liqni saqlash va profilaktika: O'quvchilarga jismoniy faollikning sog'liq uchun foydasi, turli kasalliklardan himoya qilishdagi roli haqida ma'lumot berish. Masalan, yurak-qon tomir kasalliklari, ortiqcha vazn va diabetdan himoya qilish. Inson organizmdagi patologik holatlarini erta aniqlash va oldini olish zarur.

2. Jismoniy faollik va uning tibbiy asoslari: Jismoniy tarbiya darslarida o'qituvchilar o'quvchilarga mushaklar, suyaklar va boshqa organlarning ishlashi qanday sodir bo'lishi haqida ma'lumot berishlari kerak. Bu jarayonlarda anatomiya va fiziologiya bilan integratsiyalashgan holda bilim berish.

3. Sport jarohatlari va ularning oldini olish: O'quvchilarga sport bilan shug'ullanishda qanday xavf-xatarlar mavjudligini tushuntirib berish va jarohatlardan saqlanish usullarini o'rgatish.

4. Sog'lom ovqatlanish: Sog'lom ovqatlanishning jismoniy faoliyatga ta'siri haqida ma'lumot berib, to'g'ri ovqatlanish prinsiplarini o'rganishga yordam berish.

5. Stressni boshqarish: Jismoniy tarbiya orqali stressni kamaytirish usullarini o'rgatib, psixologik salomatlikka e'tibor qaratish.

6. O'z-o'zini baholash va motivatsiya: O'quvchilarni o'z salomatliklarini baholashga undash va ularni jismoniy faollikka rag'batlantirish.

7. Tibbiyot mutaxassislari bilan hamkorlik: Darslarda tibbiyot mutaxassislari (masalan, sport shifokorlari yoki dietologlar) taklif etilib, seminarlar o'tkazilishi orqali bilimlarni yanada chuqurlashtirish mumkin.

Bu jihatlardan orqali jismoniy tarbiya darslari nafaqat jismoniy rivojlanishni, balki tibbiy bilimlarni ham oshirishga yordam beradi hamda yosh avlodning sog'lom turmush tarzini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya o'qituvchilari tibbiyot sohasidagi bilimlarni egallab olish orqali nafaqat professional malakalarini oshirishadi, balki talabalarining umumiy sog'lomligini ham yaxshilaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акбарова, Д. Р. (2016). Адаптив ҳаракатга келтирувчи рекреация ва реабилитация шакллари. Дефектологиянинг долзарб масалалари, 1(1), 51-53.
2. Akbarova, D. (2023). The importance of types of medical supervision of a doctor in the development of medical knowledge of future teachers of physical culture. Science and innovation, 2(B4), 402-407.
3. Акбарова, Д. Р. (2022). Спорт тиббиётида функционал тестларнинг аҳамияти. Илий ахборотлари илмий журнали, 1(1), 50-57.
4. Каталомова Л. Л., Словарь. М.: Дрофа, 2007.- 61с
5. Shukurov I. B. Jaхon ta'lim standartlari asosida sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirishning asosiy omillari. www. oriens. uz.2023.-03(3)-364 -bet

6. Akbarova, D. R. (2016). Place of physical exercises in the schedule. International Conference on European Science and Technology, 86(1), 75-78.
7. Arzikbaev, A., & Akbarova, D. (2016). Features of anatomic and psychophysiological development of juvenile school students. Influence of knowledge and public practice on the development of creative potential and personal success in life, 38-38.
8. Арзибаев, Қ. О., & Акбарова, Д. Р. (2016). Проблема здорового образа жизни в исследованиях. Наука и Мир, 3(3), 77-78.
9. Акбарова, Д. Р. (2015). Соғлом бўлай десангиз. Педагог газетаси, 2(951), 1-2.
10. Пономарев Н. И. Некоторые проблемы функционирования и развития теории физической культуры // Теория и практика физической культуры. 1996. – №5. – 55-58 с

QUANTUM SIMULATIONS OF DYNAMIC SYSTEMS: A PYTHON-BASED APPROACH

Raupova Mohinur Haydar qizi
Chirchik State Pedagogical University

Abstract. This article provides a practical, code-focused exploration of quantum algorithms applied to dynamic systems. It presents three key examples: the quantum harmonic oscillator, quantum walk, and quantum Fourier transform for signal processing. Each section includes a detailed Python implementation using Qiskit, along with output results and interpretations. The quantum harmonic oscillator simulation demonstrates modeling of fundamental physical systems, the quantum walk illustrates quantum interference effects in dynamic processes, and the QFT example showcases frequency analysis in quantum states. The article emphasizes hands-on learning, enabling readers to run simulations and interpret results, thus bridging the gap between theoretical quantum computing and its practical applications in dynamic systems.

Keywords: quantum computing, dynamic systems, qiskit, quantum harmonic oscillator, quantum walk, quantum fourier transform, signal processing

Lets explore practical implementations of quantum algorithms for solving problems in dynamic systems. We'll focus on three key areas: the quantum harmonic oscillator, the quantum walk, and the quantum Fourier transform for signal processing. Each section will include a Python program using Qiskit, along with the output and interpretation of results.

1. Quantum Harmonic Oscillator

The harmonic oscillator is a fundamental model in physics, describing systems that experience a restoring force proportional to displacement. Let's simulate a quantum harmonic oscillator using a quantum circuit.

[Histogram plot showing the distribution of measurement outcomes]

Interpretation: The histogram shows a strong peak at '100' (binary for 4), which corresponds to the frequency of our input signal. For a period of 2 in a 3-qubit system, we expect the main frequency component to be at the 4th basis state (counting from 0), which is exactly what we observe. This demonstrates how QFT can be used to extract frequency information from quantum states, analogous to classical Fourier analysis in signal processing.

Conclusion. These examples demonstrate practical applications of quantum algorithms in dynamic systems. The quantum harmonic oscillator simulation shows how we can model fundamental physical systems. The quantum walk illustrates quantum interference effects in dynamic processes. Finally, the QFT example showcases how quantum algorithms can be applied to signal processing tasks. As quantum hardware continues to improve, these techniques may offer significant advantages in simulating and analyzing complex dynamic systems.

References

1. Nielsen, M. A., & Chuang, I. L. (2010). Quantum Computation and Quantum Information: 10th Anniversary Edition. Cambridge University Press.
2. Aharonov, Y., Davidovich, L., & Zagury, N. (1993). Quantum random walks. *Physical Review A*, 48(2), 1687.
3. Childs, A. M. (2009). Universal computation by quantum walk. *Physical Review Letters*, 102(18), 180501.
4. Coppersmith, D. (2002). An approximate Fourier transform useful in quantum factoring. arXiv preprint quant-ph/0201067.

YANGI DAVR HIKOYACHILIGIDA G‘ARB ADABIY-ESTETIKASI TA’SIRI

Oripova Sarvinoz Narzulloyevna
“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim muassasasining
“Xorijiy filologiya” kafedrası katta o‘qituvchisi
sarvinozoripova54@gmail.com
Orcid:0009-0001-9000-0682

Annotatsiya: Mana shu maqolada G‘arb adabiy-estetikasi va uning o‘ziga xos qirralari haqida muayyan mulohazalar talqini berildi. Ayniqsa, Yevropadan ko‘chib o‘tgan tasvir usullari o‘zbek yozuvchilari ijodida qay tariqa bo‘y ko‘rsatganligi nazariy jixatdan yoritildi.

Kalit so‘z: davr, muhit, tasvir, estetika, ijodkor qiyofasi, konsepsiya.

XX asr insoniyat tarixida misli ko‘rilmagan kashfiyotlar bilan nom qozongan bo‘lsa, tasavvur qilib bo‘lmaydigan fojealar ham hech bir millatni chetlab o‘tgan emas. Istiqloлга erishgan yillardagi odamlar kayfiyati, orzu-umidlari, quvonchu tashvishlari qaysidir ma’noda ko‘ngil kechmishlarida iz, jarohat qoldirdi. Bu kabi adashishlar va o‘zlikni anglash sari qo‘yilgan ilk qadamlar bugunning odamlari uchun shunday bo‘lishi, saboqlardan xulosa chiqarishi kerak edi go‘yo. Diniy va dunyoviy ilmlar chorrahasida muvozanatdan ketgan qatlam ham bo‘ldiki, bu sobiq ittifoq davrining asoratlari sifatida qabul qilindi. Yozuvchi asarda uchta kodga ishora qiladi. Bu ochqich kalit insonning har tomonlama o‘zini anglashida – mifologik talqin usulining benihoya kattaligini isbotidir.

Isajon Sulton hikoya syujet va kompozitsiyasini, mifologik obraz va zamon, makonni yaratishda xalq og‘zaki ijodi unsurlaridan keng turda foydalanadi. “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” dostonlaridagi voqelikni mifopoetik unsurlarga to‘yintirib, o‘ziga xos tarzda “kashf” qiladi. V.M.Pivoevning ta’kidlashicha, “mifologiya dunyoni anglash usuli sifatida” baholanadi. Mifologizatsiya va mofologema, mifostruktura badiiy zamon va makonni yagona estetik mezonda birlashtira oladigan adabiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hikoyada tayyor obraz, rivojlantiruvchi obraz, murakkab obrazlar mifopoetik tafakkur tarzining nechog‘li o‘sib, yangilanib, rivojlanib borayotganidan shahodat beradi.

“Manzil” qahramonlari nega o‘z manzillariga, “Tilsim tog‘i”ga yetib borisha olmadi? Bu tog‘ning qanchadan-qancha odamlarni o‘ziga jalb qilishida qanday sir yashirin? Birgina Abdulla ismli yosh bolakayning jasorati, irodasi bunga qodir bo‘lmoqda? Qolgan yo‘lovchilarning toqqa yaqinlashgan sari, toshlarga, qoyalarga o‘yib yozilgan ismlari ham yo‘qlik sari ravona bo‘lmoqda? Yozuvchi ana shu chigal munozarani – **yangi mif** siftida o‘quvchiga havola qiladi:

“Olg‘a, faqat olg‘a! Tuyg‘ular o‘tkinchidirlar. Boyliklar bebaqo, go‘zallar bevafo dirlar. Intilayotgan manzirimizda bizlarni misli ko‘rilmagan mo‘jizalar kutmoqda! U yerda...

U yerda har birimizning ismimizga zarb etilgan xazinalar bor. Qopqalarning halqasidan tutib, ismimizni aytsak bas: tilsim ochiladi. Xazina egasining har qanday

istagi o'sha ondan boshlab, aytilgan zahoti amalga oshadi. U manzilga yaqin qoldi. Yurak sezayotir – juda yaqin qoldi”.

Bu mifologik tasvirlar hikoya va hikoyachining ijodiy niyati nechog'li turfalanib borayotganini anglatadi. Manzillardan oshib o'tib, baxt va saodat eshigiga bosh suqish odamzodga foyda berishi, avvalo, imonining mustahkamligiga qarab baholanadi. Ya'ni ojiz va zaif, sabrsiz va yalqov kimsalar bunday baxtdan mosuvo bo'ladi degan qarash kelib chiqmoqda. Aynan shu tarzda badiiy in'kos topishi asar qahramonlarini chigal so'qmoqlardan olib o'tayotgan roviy obrazi – yozuvchining o'zi boshidan o'tkazgan ma'lum qismatni ham anglatayotganidan dalolatdir.

Ta'kidlash joizki, S.Langer, U.Urban, E. Kaunt kabi olimlar tadqiqotlarida afsona, ramzlarning badiiy nasr arxitektonikasida kreativ o'rin egallashini asoslaydi. Zamon va mif tushunchasi XXI asr insoniyat tarixida misli ko'rilmagan kashfiyotlar yaratilishiga zamin yaratganini bugungi kunda guvohi bo'lmoqdamiz. Shu ma'noda, Isajon Sulton hikoyachiligi qadim zamon miflarini, bugunning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, badiiy tafakkurda “hazm qila oladigan” darajada juda silliq bir tarzda sintezlab ifoda vositasi sifatida foydalanayotganizamondosh inson obrazini shu maqsadga yaqinlashtirishni ko'zlagani e'tirof etilmoqda. Natija – sabab! Natija – oqibat formulasining hal qiluvchi ahamiyatini dalolatlash bilan birgalikda, tafakkur tarzimizni bir bahya o'zgarishiga turtki bo'layotgani ayni haqiqat.

Prof. A.Rasulova bu haqda shunday mulohazalarni ilgari suradi: “Badiiy ijodda g'oyaning pishiq-puxtaligi qanchalik muhim bo'lsa, ilmiy tadqiqotda metodologiyaning asosliliigi shunchalik ahamiyatlidir. Ijodkor g'oyani qanchalik pishitsa, sarlavha, ilk jumla, matn, timsolu xarakterlar, badiiy qurilma joziba, tiniqlik kasb etadi. Olim metodologik asosni to'g'ri belgilasa, “izm”lar labirintidapn qiynalmay chiqib ketadi, nozarur dalil, tafsilotga berilmaydi. Badiiy g'oya ijodkor jonu jahonidan sizib chiqadigan betakror topilma. Metodologik asos – ilmiy xodim ongida kechadigan murakkab jarayonlar hosilasi. O'qish, o'rganish, qiyoslash, tajriba orttirish, ruhiy-aqliy izlanish samarasi o'laroq badiiy g'oya asar bo'lib tug'iladi; ilmiy-nazariy tadqiqotda tutib turadigan metodologik tayanch mustahkam g'oyaday diqqatni tortadi” . Darhaqiqat, prof.A. Rasulov masalaning ikkala tomoniga jiddiy to'xtalib o'tish zaruratini keltirar ekan, mashishiy turmush bilan murakkab hayot kechmishlari orasida ijodkor botinidagi rosa pishib yetilgan adabiy hodisa – nazariy konseptual aqidalar zahirida yuzaga chiqar ekan, undan manfaatli istifoda qilish yozuvchi shaxsiyati bilan bog'liq degan g'oyani ilgari surmoqda. Ayniqsa, badiiy uslub nihoyatda keng tushuncha. Uning tabiatida inson fenomenini talqin etib, olam va odam sirlarini bilishga olib boruvchi ixlma-xil fragmentlar galeriyasi o'z tajassumini topishi darkor degan, konsepsiya yuzaga kelmoqda. Demak, yozuvchi har qanday sharoitda o'z individual uslubini topmas ekan, yozishga o'tirgan ondan boshlangan tug'yon yetarlicha o'quvchi qalbiga yo'l topishiga erishish qiyinlashadi. Ana shu tamoyil nazariy jihatdan to'g'ri ochiqlanishi uchun yozuvchi-qahramon-muhit uchligi uyg'un ravishda tashkillantirilishi lozim.

XX asr boshlaridan to hozirga qadar iste'molda bo'lgan tasvir me'yorlariga diqqat qaratadigan bo'lsak, uslubning o'zi nima, badiiy uslubning ijodkor fenomenini qayta idrok etishda nimalarga e'tibor berishi lozim degan o'zgarmas qonuniyat tamoyili har bir tafakkurli insonni o'ylantirishi tabiiy holdir. Har bir davrning o'ziga xos badiiy-

ijodiy yo'riqnomasi sifatida olam va odamni istifoda qiluvchi fragmentlar bo'ladiki, busiz inson shaxsi ham, xarakteri ham, davrning diqqatga sazovor maishiy manzarasi ham yuzaga yetarlicha chiqishi murakkablik tomon o'sib boradi. Dunyo adabiyotida badiiylarning oliy kategoriyalari mavjudki, bu haqda shaxs va qahramon intellekti namoyishi o'ziga xos halqani tayin etishi muqarrardir. Negaki, XX asrning 60-yillarida o'zini ifoda qilish an'anasi O'.Umarbekov, Sh.Xolmirzaev, O'.Hoshimov, E.A'zam, M.M.Do'st kabi yozuvchilarda xilma-xil ifoda uslublarining dielektik aloqasini namoyon etdi. Ayni paytda sho'ro siyosati, mafkuraviylashgan badiiy mezonlar astasekinlik bilan o'zining o'zanida, yanada namoyon bo'la boshladi. Bu milliy tuyg'u va ongda kechuvchi mental xususiyatlar bilan bog'liqligi hamda ularning davrdan o'zib orayotgan tafakkur sarhadlarining kengayishi bilan bog'liq jarayon ekanligi oydinlashdi.

Prof.S.To'laganova badiiylarning yuzaga chiqish omillari nomli maqolasida ijodkor shaxsi haqida quyidagi mulohazalarini bayon qiladi: "Ijodkor shaxsi nihoyatda murakkab tushuncha. Ijodkor tarjimai holini uning o'zi yaratgan asarlari bilan uzviy bog'lab o'rganish adabiyotshunoslikda masalaning biz shu kungacha e'tibor qilmagan jihatlarini anglashimizda muhim vosita vazifasini bajaradi. Biografik metod asoschisi Sent-Byov: "Har qanday badiiy asar bu – so'zlayotgan shaxsdir, shaxs yoki insonni asaridan ayro tushunmaslik kerak", deb aytganidek ijodkor hayoti va ichki dunyosidagi iztirob va kechinmalar uning har bir asarida iz qoldirishi aniq. Aslida, badiiy asar bu ijodkor tafakkuri nusxasining ko'chirmasidir". Binobarin, XX asrning 20-yillarida badiiy nasrga kirib kelgan Frans Kafka ana shunday ijodkorning tafakkur tarzi bilan bevosita uyg'unlashib, muvofiq tushuncha va fragmentlar silsilasida namoyon bo'lishiga erishgan yozuvchilardan biri sanaladi:

"Agar mening asosiy maydoncham kabi ishonchli joylardan yana bir nechta bo'lganda edi, zaxirani bo'lish haqida fikrim o'zini bir muncha oqlagan bo'lardi. Bir nechta mana shunday joy! Ha, albatta, o'zini oqlardi. Ammo kim qiladi endi bu ishni? Ha, endi bu ishlar yashash joyim bilan bog'liq umumiy rejaga kirmaydi. Biroq men qilgan xatomni tan olishga tayyorman, chunki qandaydir reja faqat bir nusxada tug'lsa, unda bu kabi xatolarning uchrashi tabiiy. Yashash joyimni qurish davomida xira, lekin tobora yaqqol namoyon bo'layotgan fikrpaydo bo'lgandi: agar menda shunday mustahkam maydonga ega bo'lish istagi paydo bo'lsa, bu istaka itoat etmagan bo'lardim. Boisi, bu kabi ulkan ishga o'zimni layoqatsiz his qila boshlagandim".

Frans Kafka g'oyalari o'ta og'ir hazm qilinadi. Shodiqul Hamro esa undan sal yengilroq. Chunki Kafka g'alayon ichida inson ruhini axtargan mayoq, fonus kabi ish tutadi. Uning ramzlari zalvorli. Tushuniksiz bir olam! Metaforalar orolidir. Kafka ruhoniyligi – oilasidagi ayovsiz muhit sabab bo'lishi mumkin. Chunki Ota tomonidan tahqirlangan Kafka qalbida insoniyatga bo'lgan o'ziga xos burilish hissi tobora kuchli. U o'zining qalbidagi org'irlari bilan kamol topdi. Nafs va uni jilovlash Kafkalar avlodning xos mezonga burkangan odatlaridandir. Shuning uchun ham, o'zbek ziyolilari orasida Kafkani tushunib, tushunganini tahlil qilib bera oladiganlari nihoyatda sanoqli. Shodiqul Hamroning badiiy olamidagi pafos – hikoya qurilishidagi so'z o'yinlari ham yagona estetik markazda uyushadi. Ulug'bek Hamdam va Isajon Sulton esa ramzlarni hikoyat va rivoyat bilan talqin etishga bel bog'laydi. Nazar Eshonqul esa har ikkala jihatda ham, mifni ramzlashtiradi. Mif bor, lekin uni ramzlar

tilida talqin etish nihoyatda kuchli. Ana shu konsepsiya insoniy munosabatlarning XX asrga kelib katta bir bo'lida qolgan odam ruhiyatiga yangi dunyo olib kirishga uringanligida deb tushunish mumkin.

Argentinalik yozuvchi va shoir, faylasuf Xorxe Luis Borxesning quyidagi mulohazalariga tayanadigan bo'lsak, yozuvchi Asad Dilmurodning har bir asarida insonni fikrlash orqali o'zligini, o'zligi orqali kelajagiga ishonch tuyg'usining ortishini namoyon qila boradi. Dylik oddiy hikoya shiddati o'ta og'ir, silliq ramzlar, kutilmagan burilishlar, syujetning bir-birini to'ldiruvchi arxetiplari qahramon ong ostida kechuvchi situatsiyalar bilan bezatiladi: "Fikrlash – umumlashtirish demakdir va shunday ekan, biror narsani tasdiqlash uchun biz Platonning arxetip"lariga murojaat qilishimiz kerak. Shunday ekan, adabiy janrlar mavjudligini tan olish uchun bizga nima xalaqit beradi? Bunga o'zimning mulohazalarimni ham qo'shgan bo'lardim: janr, ehtimol, matnning o'zi bilan emas, ko'proq uni o'qish vositasi bilan aniqlanadi. Estetik dalil o'quvchi va matnninng birikishi natijasida paydo bo'ladi. Zero, kitobning o'zi shunchaki moddiy ob'ektdir. Kitob o'zining haqiqatdan mavjudligiga uni o'quvchi ochgan paytdagina ega bo'ladi. Faqat o'shandagina o'z ahamiyayati bo'yicha uning yaratilish ongiga teng bo'lgan favqulodda hodisa ro'y beradi". Haqiqatdan ham, yozuvchi – o'zining individual uslubiga ega bo'lishi uchun yillar davomida o'z ongu shuurida, tajriba va intilishlari negizida erishishi tayin. X.L.borxesning mana shu iqtibosida ham fikrlashning umumlashma ko'rinishiga kirib borish, dunyoning bizga qorong'u puchmoqlarida ro'y berishi mumkin bo'lgan hodisalarga quloq tutish, hech bo'lmagan taqdirda ularni sinovdan o'tkazish, sintezlash masalasini tushunishimiz lozim. Dunyoning biz anglamagan botiniy xilqatimizdagi hali yuzaga chiqmagan ong osti hislarimiz "ramz" va "majoz" tilida o'ta murakkab bir sharoitdagi tasvirlar galeriyasi bilan boshqacha tarzda namoyon bo'lishi ham ehtimoldan holi emas!

"Hozirgi o'zbek prozasi uslub va ijodiy originallik yaratishda XX asrda yashab, ijod etgan o'zbek prozasining yirik vakillari va asoschilari A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Hamza, A.Qahhor, G'.G'ulom, Oybek, A.Muxtor singari ijodkorlarning adabiy mahorat maktabidan o'rgandi. Buni o'zbek prozasining individual qiyofasini yaratishdagi birlamchi adabiy omil sifatida baholash mumkin. Bundan tashqari, Sharq mumtoz adabiyoti an'analari, o'zbek xalq og'zaki ijodining hayotbaxsh ta'siri ham hozirgi o'zbek prozasining shakllanishida asosiy poydevor vazifasini bajardi. Biroq tilga olingan omillardan tashqari, bugungi kun yozuvchilari uchun dunyo adabiyotining yirik adiblari, jumladan, M.F.Dostoevskiy, E.Xeminguey, U.Folkner, Herman Hesse, G.G.Markes, F.Kafka, A.Kamyu, J.Joys, Dino Busatti, M.Bulgakov, Ch.Aytmatovlarning proza sohasidagi ulkan ijodiy tajribalari, kutilmagan badiiy shartli topilmalari bilan bog'liq mahorat maktabi, ijodiy ta'sir maydoni bo'lib xizmat qildi". Keltirilgan iqtibosdan shunisi ayonlashadiki, hayotning har bir o'lchovi ma'lum bir uslublar tig'izligida namoyon bo'ladi. Modda va ruh aynan yozuvchi uslubi orqali rivojlanadi. Shuni unutmaslik kerakki, badiiylik xilma-xil ifodalar sintezidan oziqlanadi. U mavhumlikdan – aniqlik sari o'tib turuvchi tushunchalarni akslantira borishida ham yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Yozuvchi Frans Kafkaning: hikoyadan – qissaga; qissadan – romanga; romandan – essega sayqallanib boruvchi badiiy uslubi ana shu konsepsiyani o'zida mujassamlashtira olganligi bilan real

mohiyatga evriladi. Buni quyidagi tavsiflarda ham o'ziga xos tarzda talqin etishimiz mumkin:

“Biroq ehtimol, bu hayvon o'zining kovagini kovlayotgandir. Shunda o'zaro kelishish haqida o'ylamayman ham. Agar bu noa'lum jonzot o'z kovagi yonidagi o'shni kovakka, mening boshpanam uyidan doim qandaydir ovozlar eshitilib turadigan qo'shniga toqat qilmaydi. To'g'ri, hayvon ancha uzoq masofada bo'lishi kerak va agar u yana yo'lida davom etaversa, butkul g'oyib bo'lib ketsa ajabmas. Balki bu shitirlash, umuman, barcha-barchasi xuddi eski kunlarda qolgani kabi, iziga tushib ketar, shundan keyin hammasi men uchun og'riqli, biroq foydali tajriba bo'lib tuyula boshlaydi. Bu aslida mening takomillashishimga xizmat qilgan bo'lardi. Xotirjam bo'lsam va xavf menga bevosita tahdid qilmay tursa, hali ham jiddiy ishlarni amalga oshirishga qodirman. Balki, ulkan imkoniyatlarga ega bo'lgan bu jonzot o'z yo'lini mening boshpanam tomonga davom ettirishdan bosh tortar va o'zini boshqa biror narsa bilan siylar ehtimol”.

Keltirilgan lavha Kafka qahramoni va sirli bir kalamush kabi asarda parallel harkatlanayotgan hayvon qiyofasini yodimizga soladi. Kafka asarlarida turli jonzotlar doamga, odamning jonzotga aylanish modusini ko'ramiz. Bir qarashda o'ta oddiydek tuyulgan voqelik, aslida murakkab hayot sinovlarida toblangan odamlar ruhiyatini tasviriga bag'ishlanadi. Undagi yangi mif Kafka olamidagi ajralmas his-tuyg'ular modifikatsiyasini tartiblashtiradi. Shodiql Hamro ham – Shayton va tun, odam va umr, inson va oxirat mavzularini Kafka singari buyoqdorlikda berishga urinadi.

Prof. E.Xudoyberdiev qayd etishicha: “Til orqali deyarli hamma narsani qamrab olish mumkin bo'lganligi sababli u bilan adabiyotning tasvir doirasi ham beqiyos imkoniyatlar kasb etadi. Biroq adabiyotning voqelikni ongimizga, qalbimizga yetib boradigan darajada samara bermog'i uchun yozuvchilar asar tili ustida qunt bilan ishlashlari, mazmunni ifodalashda yuksak badiiy aniqlikka va lo'ndalikka erishmoqlari zarur. Til adabiyotning asosiy qurolidir, hayot hodisalari, dalillar bilan birga uning materialidir. Tilning ahamiyati haqida topishmoqlardan ham birida shunday deyiladi: “Asal ham emas, lekin har narsaga yopishar”. Bu dunyoda nom qo'yilmaydigan, nom topilmaydigan narsaning o'zi yo'q, demakdir. So'z – barcha dalillar, barcha fikrlar libosi. Ammo har bir dalil zahirida ijtimoiy ma'no bor. Dalillar zahirida yashiringan ijtimoiy hayot ma'nosini uning muhimligi, to'laligi va yorqinligigacha tasvirlashni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan badiiy adabiyotdan ravon, tushunarli til, puxta tanlangan so'zlar talab etiladi. Klassiklar yuz yillar davomida asta-sekin ishlangan ana shunday tilda yozganlar”. Demak, badiiy til jozibasi yozuvchining hayot materialini, umuman so'zdan-so'zning farqini, xususiyatini, obrazli ifodasini teran o'zlashtirishni dalolatlaydi. Insonning har bir kuni, yashashi, hatto umri davomida izlanishlari, til va tafakkur bilan amalga oshiriladi.

Zukko adabiyotshunos N.Mallaev qayd etishicha: “Hikoya Yaqin va O'rta Sharq xalqlar adabiyotida keng tarqalgan janrlardan biridir. Hikoya – yozma adabiyot bilan og'zaki ijodiyotni bir-biriga bog'langan muhim omil. Halq hikoyalari bilan kitobiy hikoyalar o'zaro chunon yaqinki, ularni qat'iy chegaralash ko'pincha amri maholdir. Chunki hikoya xalq rivoyatlaridan kitobga, kitobdan xalq hikoyachiligiga o'tib borgan. Shu bilan birga, ma'lum bir xalqning adabiyoti (yoki folklori) zaminida vujudga kelgan hikoya ikkinchi bir xalq tomonidan qayta ishlanib, “o'zlashib”, uning adabiyoti

bisotiga qo‘shilib ketar edi. Binobarin, syujet va kompozitsiya, obrazlar sistemasi jihatdan bir-biriga monand hikoyalar, bir tomondan, ijtimoiy hayot, tarixiy sharoitning o‘xshashligi natijasida bir-biridan mutasno g‘olatda vujudga kelsa, ikkinchi tomondan, adabiy aloqalarning mahsuli sifatida paydo bo‘ladi”. Jumladan, turkiy xalqlar adabiyotidagi nazmiy asarlarning – hikoya shakliga o‘tishi, bir-ikkki asr mobaynida taraqqiy etish pallasiga kirgan. Shunday ekan, joriy kunda g‘arb adabiyoti, hamda sharq an‘analari negizida qayta shakllanib, rivojlanib borayotganligi yuqoridagi mulohazaalarimizni to‘laqonli dalolatlaydi. “Dunyo adabiyotida prozaning o‘rni haqida gap borganda uning taraqqiyotini kuzatayotgan har bir o‘quvchi hikoyachilikning tez sur‘atlar bilan rivojlanib borayotganligini va bu kichik janrda ham boshqa epik janrlardagidek salmoqli hayotiy muammolar hal qilib berilayotganini ko‘rmasligi mumkin emas. Inson o‘zidagi evrilishlar, o‘zligini anglash tuyg‘usining borgan sari kuchayishi odamlararo munosabatlardagi murakkablikni, shaxs va voqelik, jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni haqqoniy, real aks ettirishni taqozi qildi”. Mana shu jarayonda kichik janrda “katta gap aytish” mahorati har bir ijodkor qiyofasini belgilovchi badiiy uslub kriteriylari bilan jonlantiriladi. Ayni paytda, hikoya va qissa orasidagi farqlanishlar, kichik janrning mifopoetik imkoniyatlarini yangilash jahon adabiyoti bilan bo‘ylashish yo‘sinlari sari harakatlanadi

Xulosa shuki, G‘arb adabiy-estetik tafakkuri hamisha o‘zidan oldingi va keyingi avlod o‘rtasidagi mustahkam ko‘priikka o‘xshaydi. Bu ko‘prikning oltin davri **modernizm** adabiyoti bilan bevosita bog‘liqdir. Zamon va makonda kechuvchi har qanday voqelik, tashbeh, mif, metanimiya hodisasi inson irodasini sinovdan o‘tkazish va shu orqali voqelikka yangicha husn bag‘ishlashga qaratilganligida seziladi. Frans Kafka, Isajon Sulton, Shodqul Hamro, Ulug‘bek Hamdam hikoyalarida murakkab sema jihatlarni yuzaga keltiradi. Zotan, har bir badiiy epik polotno – tahrir va talqinda o‘z maromiga yetadi. Bular ijodkor taqdirida uchrashishi mumkin nuqtalardan biri desak, mubolag‘a qilmaymiz!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tosheva, N. Isajon Sulton hikoyalarida folklorning o‘rni. Til va adabiyot ta’limi, 2019, 5-son, 33–35-betlar.
2. Sulton, I. Asarlar: Hikoyalar. 1-jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2017.
3. Pivoev, V. M. Mifologik ong: dunyoni o‘zlashtirish usuli sifatida. Petrozavodsk: Kareliya, 1991.
4. Rasulov, A. Badiiylik – bezavol mezon. Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2007.

INGLIZ ROMANTIK ADABIYOTINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Maftuna Shermatovna Omonova

Alfraganus universiteti,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b.dotsent

KIRISH

Ingliz romantik adabiyoti XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida shakllangan bo'lib, u ma'rifatchilik davrining ratsionalizm va klassitsizm tamoyillariga qarshi badiiy-estetik harakat sifatida yuzaga kelgan. Bu yo'nalish inson ruhiyati, individual kechinmalar, tabiat go'zalligi va erkinlik g'oyalarini markazga qo'yishi bilan ajralib turadi. Ingliz romantizmi Yevropa romantik harakatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, adabiyot tarixida tub burilish yasagan davr hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Romantizmning shakllanishi ko'pincha 1798-yilda William Wordsworth va Samuel Taylor Coleridge tomonidan yaratilgan Lyrical Ballads to'plamining nashri bilan bog'lanadi. Ushbu asar ingliz she'riyatida yangi estetik tamoyillarni boshlab bergan. Ayniqsa, Wordsworthning she'riyat haqidagi nazariy qarashlari romantik adabiyotning dasturiy asosiga aylangan.

Ingliz romantik adabiyotining asosiy xususiyatlaridan biri — individuallik va subyektivlikning ustuvorligidir. Romantik ijodkorlar insonning ichki dunyosini, his-tuyg'ularini va ruhiy iztiroblarini tasvirlashga katta e'tibor qaratdilar. Ular nazarida shoir — oddiy kuzatuvchi emas, balki ilhom va tasavvur kuchi bilan haqiqatni qayta yaratuvchi ijodkordir. Bu jihat William Blake va Lord Byron ijodida yaqqol namoyon bo'ladi.

Ikkinchi muhim xususiyat — tabiatga bo'lgan alohida munosabatdir. Romantiklar uchun tabiat shunchaki fon emas, balki tirik va ruhiy kuchga ega mavjudlik sifatida talqin qilinadi. Tabiat inson ruhiyatining aks-sadosi, ma'naviy poklanish va ilhom manbai sifatida tasvirlanadi. Masalan, Wordsworth she'riyatida tabiat insonni axloqiy jihatdan tarbiyalovchi kuch sifatida gavdalanadi.

Uchinchi jihat — tasavvur (imagination) va ilhomning ustun qo'yilishidir. Romantiklar aql va mantiqdan ko'ra tasavvur kuchini yuksak baholaydilar. Samuel Taylor Coleridge o'zining Biographia Literaria asarida tasavvurning ijodiy jarayondagi o'rnini nazariy jihatdan asoslab beradi. Uning fikricha, tasavvur — bu inson ongining yaratuvchan kuchidir.

To'rtinchi xususiyat — erkinlik va isyonkorlik ruhidir. Romantik adabiyot French Revolution g'oyalaridan ilhomlangan bo'lib, shaxs erkinligi va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurash motivlarini o'zida mujassam etadi. Bu ayniqsa Percy Bysshe Shelley va Lord Byron asarlarida kuchli ifodalangan. Bayron yaratgan qahramon tipi — "bayronik qahramon" — jamiyat bilan ziddiyatga kirishuvchi, mustaqil va ichki iztirobga to'la obraz sifatida adabiyot tarixida muhim o'rin egallaydi.

Beshinchi xususiyat — o'tmishga, ayniqsa o'rta asrlarga va xalq og'zaki ijodiga qiziqishdir. Romantiklar milliy folklor, afsona va tarixiy mavzulardan keng foydalanganlar. Bu jihat John Keats she'riyatida estetik go'zallik va abadiylik g'oyasi bilan uyg'unlashadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz romantik adabiyoti shaxsiyat erkinligi, kuchli hissiyot, tabiatga yaqinlik, tasavvur va ijodkorlikni ulug'lash kabi tamoyillari bilan ajralib turadi. U klassitsizmning qat'iy qoidalarini rad etib, badiiy erkinlik va individual ifodani adabiyot markaziga olib chiqdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. William Wordsworth. Preface to Lyrical Ballads. London, 1802.
2. Samuel Taylor Coleridge. Biographia Literaria. London, 1817.
3. M. H. Abrams. The Mirror and the Lamp. Oxford: Oxford University Press, 1953.
4. M. H. Abrams (ed.). The Norton Anthology of English Literature. New York: W. W. Norton.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O'QITISHDA AUDIO MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI

Davlatova Munisa Aminovna
munisadavlatova275@gmail.com

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Boshlang'ich ta'limda amaliy fanlar kafedrası o'qituvchisi, Chirchiq, O'zbekiston

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich maktab matematika o'quv dasturi tarkibidagi geometriya komponentini o'qitishda audio materiallarning pedagogik roli va samaradorligi har tomonlama tahlil qilingan. Unda o'quvchilarning fazoviy tasavvuri va geometrik tafakkurini shakllantirish hamda tizimli ravishda rivojlantirish uchun audio vositalardan unumli foydalanish bo'yicha tizimli, amaliy tavsiyalar yoritilgan. Bundan tashqari, tadqiqotda fazoviy fikrlashni optimallashtirish uchun ta'lim jarayoniga audio stimullarni strategik jihatdan qanday integratsiya qilish mumkinligi ko'rib chiqilgan hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun multisensorli o'qitish natijalarini yaxshilashga qaratilgan amaliy metodologiyalar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: Geometriya, audio materiallar, boshlang'ich ta'lim, fazoviy tasavvur, innovatsion metodologiya, AKT.

Kirish va mavzuning dolzarbligi

Zamonaviy ta'lim sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) integratsiyalashuvi o'quvchilarning darsga jalb qilinishini oshirish va o'qitish sifatini yaxshilashda asosiy katalizator bo'lib xizmat qilmoqda. Boshlang'ich ta'lim paradigmasida matematika – xususan, uning geometriya komponenti – yuqori darajadagi mavhum fikrlash va fazoviy modellashirishni talab etadi. An'anaga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilariga geometriyani o'qitish metodologiyasi statik jadvallar, jismoniy modellar va sinf doskasidagi chizmalardan foydalanish orqali asosan bevosita vizual idrok etishga tayanib kelgan. Vizual savodxonlik, shubhasiz, muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, faqat unga suyanish o'rganuvchilarning psixologik xilma-xilligini (individual xususiyatlarini) to'liq qamrab olish imkonini bermaydi.

O'zbekiston boshlang'ich sinf matematika darsliklarida geometrik tushunchalarning zich integratsiyalashgani aniqlangan bo'lsa-da, o'quvchilar aniq idrokdan mavhum tasavvurga o'tishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Neyropedagogik yondashuvlar orqali vizual tasvirlarni audio konfiguratsiyalar bilan birlashtirish ma'lumotni saqlab qolish va fazoviy tasavvurni rivojlantirishda samarali ekanligi ko'rsatilgan.

"**Gapiradigan shakllar**" kabi audio-personifikatsiya usullari orqali ta'limni kognitiv yuklamani muvozanatlashtirgan holda o'tish tavsiya etiladi. Tadqiqot xalqaro kognitiv nazariyalar va mintaqaviy ta'lim tadqiqotlariga asoslangan.

A misoli (Kvadrat): "Men kvadratman. Mening to'rtta mutlaqo teng tomonim va to'rtta to'g'ri burchagim bor. Men xuddi derazadek muvozanatliman!"

B misoli (Uchburchak): "Men uchburchakman. Mening uchta o'tkir burchagim va uchta to'g'ri tomonim bor. Pizza bo'lagiga qarang – bu mening shaklim!"

C misoli (Doira): “Men doiraman. Mening hech qanday o‘tkir burchagim yo‘q. Men xuddi velosiped g‘ildiragidek silliq yumalayman!”

Audio diktantlar (Fazoviy konstruksiyalash)

Ushbu jarayon o‘quvchilardan hech qanday vizual manbalarsiz, og‘zaki ko‘rsatmalarni qog‘ozda geometrik shakllarga faol ravishda o‘g‘irishni talab qiladi. Bu usul bevosita barqaror diqqatni, eshitib tushunishni va fazoviy-motorik ijroni rivojlantirishga qaratilgan.

1-topshiriq: “Diqqat bilan tinglang: varaqingizning o‘rtasiga katta doira chizing. Endi ushbu doiraning ichiga butunlay sig‘adigan kichik kvadrat joylashtiring.”

2-topshiriq: “Gorizontal chiziq chizing. Ushbu chiziqning ustiga uchburchak quring, hosil bo‘lgan umumiy shakl uyning tomiga o‘xshasin.”

3-topshiriq: “Katta to‘rtburchak chizing. Uni o‘rtasidan bitta to‘g‘ri vertikal chiziq tortish orqali ikkita teng kvadratga ajrating.”

Musiqiy algoritmlar (Ritmik mnemonika)

Amaliy matematik ta‘riflar va formulalarning tarkibiy jihatdan xotirada saqlanishini osonlashtirish uchun geometrik parametrlar ritmik bitlar yoki melodik iboralarga moslashtiriladi.

Perimetr uchun ritmik qo‘shiq: “Hamma tomonni qo‘shing, birontasini ham tashlab ketmang, mana siz topgan Perimetr!”

Burchaklar uchun rep: “90 gradus – to‘g‘ri va tik, xuddi kitobning burchagidek, u ajoyib ko‘rinadi!”

Yuza (Soha) uchun mnemonika: “Poygada uzunlikni eniga ko‘paytiring, biz ichki maydonni mana shunday o‘lchaymiz!”

Tajriba-sinov ishlari va natijalar

Taklif etilayotgan audio-integratsiyalashgan metodologiyaning amaliy asosliligini va o‘qitish samarasini baholash maqsadida Chirchiq shahridagi 13-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabida nazorat ostida amaliy tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida tarkibiy jihatdan parallel bo‘lgan ikkita alohida kuzatuv guruhiga bo‘lingan ikkinchi sinf o‘quvchilari tanlab olindi: Eksperimental guruh 2-“V” (n=28) va Nazorat guruhi 2-“B” (n=26). Nazorat guruhi (2-“B”) an‘anaviy darsliklar va an‘anaviy vizual metodlar asosida ta‘lim oldi. Eksperimental guruh (2-“V”) esa belgilangan o‘quv davrida tizimli ravishda “Gapiradigan shakllar”, “Audio diktant” va “Musiqiy algoritmlar” o‘quv dasturi asosida o‘qitildi. Pedagogik intervensiyadan (aralashuvdan) so‘ng, fazoviy identifikatsiya aniqligi, amaliy geometrik chizmachilik qobiliyati va matematik qoidalarining xotirada saqlanish darajasini o‘lchash uchun har tomonlama yakuniy baholash o‘tkazildi. Miqdoriy ko‘rsatkichlar quyidagi jadvalda batafsil yoritilgan:

Faoliyatni baholash ko‘rsatkichlari	Nazorat guruhi 2-“B” (%)	Eksperimental guruh 2-“V” (%)	Statistik farq (Δ)
Fazoviy tasavvur va shakllarni identifikatsiya qilish	68.4%	78.2%	+9.8%

Og‘zaki diktantni chizmaga aniq o‘gira olish	62.5%	74.3%	+11.8%
Formula va parametrlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishi	64.1%	75.9%	+11.8%
Geometrik savodxonlikning umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichi	65.0%	76.1%	+11.1%

1- jadval

Amaliy natijalar guruhlar o‘rtasida me‘yoriy va ishonchli ko‘rsatkichlar farqini namoyish etdi. Eksperimental guruh 2-“V” nazorat guruhiga nisbatan umumiy geometrik savodxonlik darajasida 11.1% lik mutloq o‘shishni ko‘rsatdi. Ayniqsa, eng sezilarli farq og‘zaki nutqni fazoviy tasvirga o‘tkazish (diktant asosida chizish) hamda parametrlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishi toifalarida (+11.8%) kuzatildi. Bu ko‘rsatkich muntazam va tizimli qo‘llanilgan audiokontent bolaning ichki fazoviy modellashtirish hamda diqqatni jamlash qobiliyatini pedagogik standartlar doirasida sezilarli darajada mustahkamlashini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

Kognitiv yuklamaning bir qismini haddan tashqari to‘yingan vizual kanaldan audio kanalga o‘tkazish dars jarayonida toliqishni samarali boshqarish imkonini berdi va o‘quvchilarga butun dars bloki davomida yuqori darajadagi faollikni saqlab qolishga yordam berdi.

Xulosa

Tizimli tuzilgan audio materiallarning boshlang‘ich sinf o‘quv dasturiga integratsiya qilinishi an‘anaviy o‘qitishga kiritilgan kichik o‘zgartirish emas, balki sezilarli pedagogik yutuqni anglatadi. Bir nechta sezgi kanallarini jalb qilish orqali ushbu metodologiya faqat vizual usullarning cheklanganligini bartaraf etadi, o‘quvchilarda haqiqiy aqliy tasavvur va mustahkam fazoviy fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi. Chirchiq shahridagi 13-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabidan olingan empirik dalillar audio-integratsiyalashgan ta‘lim boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida geometrik tushunchalarni va uzoq muddatli xotirani saqlashni sezilarli darajada yaxshilashini tasdiqlaydi. Ta‘lim tizimlari chuqur raqamlashtirish bosqichiga o‘tayotgan bir davrda, ushbu tadqiqotda ko‘rsatilgan akustik usullardan foydalanish XXI asr o‘quvchilari uchun ko‘p o‘lchovli matematik intellektni shakllantirishda keng joriy etilishi mumkin bo‘lgan yondashuv hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)

1. Azizkhojayeva, N. N. (2006). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU. – 160 b.
2. Clements, D. H., & Sarama, J. (2009). Learning and Teaching Early Math: The Learning Trajectories Approach. Routledge. – 344 p.
3. Djumayev, M. (2023). Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent: "Bayoz" nashriyoti. – 296 b.

4. Gardner, H. (2006). *Multiple Intelligences: New Horizons in Theory and Practice*. New York: Basic Books. – 320 p.
5. Pashler, H., McDaniel, M., Rohrer, D., & Bjork, R. (2008). Learning Styles: Concepts and Evidence. *Psychological Science in the Public Interest*, 9(3), 105-119.

AMALIY INGLIZ TILI O'QUV MASHG'ULOTLARIDA KONNOTATIV MOHIYATLI O'QUV MATERIALLARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Xoshimova Dilnoza Rixsiboyevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi Impuls tibbiyot instituti dotsenti,

Annotatsiya: Mazkur maqolada amaliy ingliz tili mashg'ulotlarida konnotativ mohiyatga ega o'quv materiallaridan foydalanishning metodik asoslari yoritiladi. Til birliklarining nafaqat denotativ, balki konnotativ ma'nolarini o'rgatish talabalarning lingvistik, pragmatik va madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligi tahlil qilinadi. Shuningdek, konnotativ mazmundagi matnlar, frazeologizmlar, idiomalar, badiiy asarlar va autentik materiallardan foydalanish usullari hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: konnotatsiya, amaliy ingliz tili, o'quv materiali, kommunikativ kompetensiya, pragmatika, madaniyatlararo muloqot, idiomalar, frazeologizmlar, autentik materiallar.

Kirish

Shunday qilib, neyropedagogik asoslar ona tilini o'qitishda muhim o'rin tutadi, ta'limni tashkil etishga ilmiy asoslangan yondashuvni ta'minlaydi. Ularning ahamiyati o'quv jarayoni samaradorligini oshirish, lingvistik jihatdan shaxsni rivojlantirish va barqaror kognitiv ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatlaridadir. Ushbu sohani rivojlantirish istiqbollari fanlararo tadqiqotlarni chuqurlashtirish, o'qitish usullarini takomillashtirish va ilmiy bilimlarni o'quv amaliyotiga kengroq joriy etish bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Юдов О.С. Реализация функций дополнительного профессионального образования в центре обучения взрослых: Автореф. дисс... канд. пед. наук. — Калининград, 2010. — 22 с.

2 Барбитова А.Д. Возможности использования нейро-лингвистического программирования как средства личностного ориентированного воспитания старшеклассников: Автореф. дисс... канд. пед. наук. — Ульяновск, 2004. — 22 с.

3.Шермухамедова Н.А. Илмий тадқиқот методологияси. Дарслик. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 512 б.

4. Qo‘ldoshev, N.A. Ekolingvistika: o‘zbek tilida til va nutq sofligining lingvokulturologik tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Farg‘ona, 2021. – 138 b.

5. Qodirov, Q.B., Sattorova, D.Dj. Yunogogika. Darslik. – Termiz: «Abdulaziz Duyorbek» nashriyot markazi, 2025. – 240 b.

ELEKTRON PORTFOLIO ASOSIDA TALABALARNING KASBIY-REFLEKSIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Usarov Jabbor Eshbekovich

Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

E-mail: jabborusarov68@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda elektron portfolio vositasida talabalarning kasbiy-refleksiv kompetensiyasini rivojlantirishning maqsadi, mazmuni va metodik bosqichlari asoslanadi. Kasbiy-refleksiv kompetensiya talabaning kasbiy vazifani bajarish jarayonini mezonlar asosida tahlil qilishi, faoliyat dalillarini tanlashi, o‘z qarorlarini izohlashi, teskari aloqadan foydalanishi va keyingi harakatlarini korreksiya qilishi qobiliyati sifatida talqin etiladi. Tadqiqot nazariy tahlil, kompetensiyalarni xaritalash va pedagogik loyihalash metodlariga tayangan. Maqsadli-dagnostik, daliliy-faoliyatli, refleksiv-analitik, ko‘p manbali baholash hamda korreksion-transfer bosqichlaridan iborat metodik sikl taklif etiladi. Har bir portfolio artefaktiga mezonli refleksiv sharh, o‘qituvchi yoki tengdosh fikri va takomillashtirilgan variantni biriktirish talabaning kasbiy o‘rish dinamikasini ko‘rinadigan qiladi. Metodikaning amaliy qiymati elektron portfolioni oddiy fayllar omboridan uzluksiz o‘zini baholash, dalillash va kasbiy rivojlanishni rejalashtirish vositasiga aylantirishida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: elektron portfolio, kasbiy-refleksiv kompetensiya, refleksiya, autentik baholash, teskari aloqa, o‘zini o‘zi baholash, raqamli ta’lim.

Kirish

Raqamli ta’lim muhitida talabaning kasbiy tayyorgarligini faqat yakuniy test yoki nazorat ishi bilan baholash yetarli emas. Kasbiy kompetensiya vaqt davomida shakllanadi va uning rivojlanishi talabaning bajargan loyihalari, keys yechimlari, amaliy topshiriqlari, hamkorlik natijalari, xatolari hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha qarorlarida namoyon bo‘ladi. Shu sababli zamonaviy baholash tizimi natijani qayd etish bilan birga talabaning o‘z faoliyatini anglashiga, dalillarni izohlashiga va keyingi rivojlanish yo‘nalishini belgilashiga xizmat qilishi lozim.

Refleksiv amaliyot mutaxassisning murakkab vaziyatlarda tayyor algoritmni takrorlash emas, balki o‘z harakatini vaziyat jarayonida va faoliyat yakunidan so‘ng tahlil qilishini nazarda tutadi. D. Shyon refleksiyani professional fikrlashning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida izohlagan [1]. Elektron portfolio ushbu jarayonni raqamli dalillar, izohlar, teskari aloqa va qayta ishlangan mahsulotlar orqali tizimli tashkil etish

imkonini beradi. Biroq amaliyotda portfolio ko‘pincha faqat sertifikat, topshiriq va taqdimotlarni saqlash papkasiga aylanib qoladi. Bunday yondashuvda dalil mavjud bo‘lsa-da, uning kasbiy o‘rish bilan aloqasi va talabaniing refleksiv fikrlashi yetarli darajada ochilmaydi.

Mazkur tezisning maqsadi elektron portfolio asosida talabalarning kasbiy-refleksiv kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metodik siklni asoslashdan iborat. Tadqiqot nazariy-metodik xarakterga ega bo‘lib, unda ilmiy manbalarni tahlil qilish, kompetensiya komponentlarini xaritalash, portfolio topshiriqlarini pedagogik loyihalash va mezonli baholash usullaridan foydalanildi.

Kasbiy-refleksiv kompetensiyaning mazmuni

Kasbiy-refleksiv kompetensiya – talabaniing kasbiy maqsad va standartlarni tushunishi, o‘z faoliyati to‘g‘risidagi ishonchli dalillarni yig‘ishi, qo‘llagan qaror va usullarini sabab-oqibat nuqtayi nazaridan tahlil qilishi, o‘z kuchli va rivojlantirilishi lozim bo‘lgan jihatlarini aniqlashi, teskari aloqani qabul qilib faoliyatini takomillashtirishi hamda o‘rgangan tajribasini yangi vaziyatga ko‘chira olishi bilan tavsiflanadigan integrativ sifatdir. Uning tarkibida motivatsion-qadriyatli, kognitiv-analitik, daliliy-faoliyatli, refleksiv-korreksion, kommunikativ va raqamli-etik komponentlar ajratiladi.

Tadqiqotlar elektron portfolio talabaniing o‘z kompetensiyalarini anglashiga, faoliyat mahsulotlarini maqsadli tanlashiga va refleksiv fikrlashiga yordam berishini ko‘rsatadi [2–4]. Shu bilan birga, samaradorlik portfolio platformasining o‘zidan emas, balki topshiriq dizayni, refleksiv savollar, muntazam mentorlik va baholash mezonlarining aniqligidan kelib chiqadi. Oliy ta’limda e-portfolio joriy etilishiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda vaqt sarfi, texnik ko‘nikmalar, foydalanuvchi tayyorgarligi, plagiat, maxfiylik va fragmentar teskari aloqa asosiy to‘siqlar sifatida qayd etilgan [5, 6]. Demak, elektron portfolio refleksiyani avtomatik ravishda shakllantirmaydi; u maxsus metodik boshqaruvni talab qiladi.

Elektron portfolio asosidagi metodik sikl

Taklif etilayotgan metodika portfolio bilan ishlashni bir martalik yakuniy topshiriq sifatida emas, balki semestr davomida takrorlanadigan “maqsad – faoliyat – dalil – refleksiya – teskari aloqa – korreksiya – transfer” sikli sifatida tashkil etadi. Har bir kasbiy modul uchun oldindan kompetensiya indikatorlari, taqdim etilishi lozim bo‘lgan artefaktlar, refleksiv sharh formati va baholash rubrikasi belgilanadi. Elektron portfolio tarkibiga talabaniing kasbiy profili, individual maqsadlar kartasi, autentik topshiriqlar natijalari, jarayon dalillari, refleksiv yozuvlar, o‘qituvchi va tengdoshlar fikri, takomillashtirilgan mahsulot hamda yakuniy rivojlanish xaritasi kiritiladi.

1-jadval

Elektron portfolio asosidagi metodik sikl

Bosqich	Talabaniing asosiy faoliyati	Pedagogik va raqamli qo‘llab-quvvatlash	Kutiladigan dalil
1. Maqsadli-dagnostik	O‘zini baholash, individual maqsad va indikatorlarni belgilash	Kompetensiya xaritasi, diagnostik savollar, namunaviy profil	Boshlang‘ich profil va rivojlanish maqsadi

2. Daliliy-faoliyatli	Autentik kasbiy topshiriqni bajarish va jarayon dalillarini yig'ish	LMS topshirig'i, loyiha, keys, video yoki raqamli mahsulot	Artefakt va jarayon izi
3. Refleksiv-analitik	Qaror, natija, xato va omillarni mezon asosida tahlil qilish	Refleksiv savollar, kundalik, audio yoki yozma sharh	Asoslangan refleksiv izoh
4. Ko'p manbali baholash	O'zini baholash, tengdosh va o'qituvchi fikrini solishtirish	Rubrika, kommentariya, konferensiya yoki peer-review	Teskari aloqa xaritasi
5. Korreksion-transfer	Mahsulotni qayta ishlash va yechimni yangi vaziyatga ko'chirish	Qayta topshirish, alternativ keys, individual tavsiya	Takomillashtirilgan artefakt va harakat rejasi
6. Taqdimot-baholash	Portfolio tanlovi va kasbiy o'sish dinamikasini himoya qilish	Yakuniy rubrika, ekspert bahosi, rivojlanish analitikasi	Kompetensiya profili va kelgusi reja

Refleksiyani chuqurlashtirish va baholash

Elektron portfoliodagi refleksiv sharh “nima qildim?” savoliga javob beruvchi oddiy tavsif bilan cheklanmasligi kerak. Talabaga quyidagi yo'naltiruvchi savollar beriladi: kasbiy vazifa va muvaffaqiyat mezonini nimadan iborat edi; qaysi qarorlar qabul qilindi va ular qanday dalilga tayandi; natijaga qaysi omillar ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatdi; olingan teskari aloqa qarorni qanday o'zgartirdi; keyingi o'xshash vaziyatda nimalar saqlanadi va nimalar boshqacha bajariladi? Bunday savollar refleksiyani tavsifiy bosqichdan tahliliy va tanqidiy bosqichga olib chiqadi.

Baholashda oltita mezondan foydalanish maqsadga muvofiq: 1) maqsad va kasbiy mezonni anglash; 2) artefaktlarning autentikligi va relevantligi; 3) qarorlarni dalillar bilan asoslash; 4) refleksiyani chuqurligi; 5) teskari aloqa asosida korreksiya qilish; 6) yangi vaziyatga transfer va raqamli etikaga rioya etish. Har bir mezon reproduktiv, adaptiv, produktiv va innovatsion darajalarda tavsiflanadi. Masalan, reproduktiv darajada talaba tayyor savollar bo'yicha faoliyatini tasvirlaydi; adaptiv darajada kuchli va zaif jihatlarni aniqlaydi; produktiv darajada qarorlar sababini dalillar bilan tahlil qilib, mahsulotni qayta ishlaydi; innovatsion darajada esa tajribani yangi kasbiy vaziyatga ko'chiradi va o'z rivojlanish strategiyasini mustaqil ishlab chiqadi.

Raqamli baholash vositalari portfolio faoliyatining davriyligi, topshiriqlarni topshirish va qayta ishlash soni, fikr-mulohaza bilan ishlash faolligi kabi jarayon ma'lumotlarini ko'rsatishi mumkin. Biroq analitik ma'lumotlar yakuniy pedagogik hukmni almashtirmasligi lozim. Refleksiya mazmuni, qarorning kasbiy asoslanganligi va etik mas'uliyat o'qituvchi yoki ekspert tomonidan mezonli tahlil qilinadi. DigCompEdu doirasida ham raqamli baholash, o'quvchi imkoniyatlarini kengaytirish va o'zini o'zi boshqarib o'rganish o'zaro bog'liq yo'nalishlar sifatida ko'riladi [7].

Pedagogik shart-sharoitlar

Metodikani samarali joriy etish uchun, birinchidan, portfolio topshiriqlari o'quv dasturidagi real kasbiy vazifalar bilan bog'lanishi; ikkinchidan, talabalarga platformadan foydalanish va refleksiv yozuv bo'yicha qisqa trening berilishi; uchinchidan, katta hajmdagi yakuniy portfolio o'rniga muntazam kichik sikllar tashkil etilishi; to'rtinchidan, o'zini baholash, tengdoshlar bahosi va o'qituvchi bahosi uyg'unlashtirilishi; beshinchidan, yaxshi refleksiv sharh namunalari va aniq rubrikalar taqdim etilishi zarur. Yuqori ta'sirli e-portfolio amaliyotida mazmunni integratsiyalash, talaba faolligi, muntazam refleksiya va konstruktiv teskari aloqa markaziy shartlar sifatida ko'rsatiladi [8].

Elektron portfolio bilan ishlashda mualliflik huquqi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, uchinchi shaxs tasvirlari yoki ishlarini joylashtirishga rozilik olish, sun'iy intellekt yordamidan foydalanilgan bo'lsa uni ochiq ko'rsatish va portfolio dalillarining haqiqiyligini ta'minlash muhimdir. Talabaga "hamma narsani joylashtirish" emas, balki kasbiy o'sishni isbotlaydigan eng muhim dalillarni tanlash o'rgatiladi. Shu tariqa portfolio hajm emas, dalilning sifati va refleksiyaning chuqurligi bilan baholanadi.

Xulosa

Elektron portfolio talabalarning kasbiy-refleksiv kompetensiyasini rivojlantirish uchun katta didaktik imkoniyatga ega, biroq uning samarasi platforma mavjudligi bilan emas, metodik siklning to'g'ri qurilishi bilan belgilanadi. Maqsadni aniqlash, autentik faoliyat dalillarini yig'ish, mezonli refleksiya, ko'p manbali teskari aloqa, mahsulotni qayta ishlash va tajribani yangi vaziyatga ko'chirish bir butun jarayon sifatida tashkil etilganda talaba o'z kasbiy rivojlanishining faol subyektiga aylanadi. Taklif etilgan metodika elektron portfolioni nazorat vositasidan individual rivojlanish, professional identifikatsiya va dalillarga asoslangan o'zini takomillashtirish mexanizmiga aylantirishga xizmat qiladi. Keyingi bosqichda metodikaning samaradorligini tajriba va nazorat guruhlarida, refleksiya sifati hamda kompetensiya darajalarining o'zgarishi asosida tekshirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books, 1983.
2. Cheng G., Chau J. A study of the effects of goal orientation on the reflective ability of electronic portfolio users // The Internet and Higher Education. 2013. Vol. 16. P. 51–56. DOI: 10.1016/j.iheduc.2012.01.003.
3. Chye S., Zhou M., Koh C., Liu W.C. Using e-portfolios to facilitate reflection: Insights from an activity theoretical analysis // Teaching and Teacher Education. 2019. Vol. 85. P. 24–35. DOI: 10.1016/j.tate.2019.06.002.
4. Landis C.M., Scott S.B., Kahn S. Examining the role of reflection in ePortfolios: A case study // International Journal of ePortfolio. 2015. Vol. 5, No. 2. P. 107–121.
5. Pospíšilová L., Rohlíková L. Reforming higher education with ePortfolio implementation, enhanced by learning analytics // Computers in Human Behavior. 2023. Vol. 138. Article 107449. DOI: 10.1016/j.chb.2022.107449.

6. Yang H., Wong R. An in-depth literature review of e-portfolio implementation in higher education: Steps, barriers, and strategies // Issues and Trends in Learning Technologies. 2024. Vol. 12, No. 1. P. 65–101. DOI: 10.2458/itlt.5809.

7. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. DOI: 10.2760/159770.

8. Eynon B., Gambino L.M. High-Impact ePortfolio Practice: A Catalyst for Student, Faculty, and Institutional Learning. Sterling, VA: Stylus Publishing, 2017.

VAQT MA'NOSINI BILDIRUVCHI LEKSIK BIRLIKLAR ORASIDAGI SINONIMIK MUNOSABATLAR (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MATERIALIDA)

Anvarov Abdulhamid Akmal o'g'li
Toshkent gumanitar fanlar universiteti,
Amaliy va gumanitar fanlar fakulteti dekani

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida vaqt ma'nosini ifodalovchi leksik birliklar orasidagi sinonimik munosabatlar funksional-semantik yondashuv asosida qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinadi. Vaqt tushunchasini ifodalovchi so'zlar (now – hozir; then – keyin, so'ng; soon – tez, yaqinda kabi) o'zaro ma'nodoshlik hosil qilib, alohida sinonimik qatorlarni tashkil etadi. Tadqiqotda ana shu qatorlarning dominanti, semantik farqlovchi belgilari, emotsional-ekspressiv bo'yog'i va uslubiy xoslanishi ochib beriladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida vaqt sinonimlari aniq pozitsion ko'rsatkichlarga, o'zbek tilida esa kontekstga bog'liq polifunksional xususiyatlarga ega. Tadqiqot natijalari qiyosiy leksikologiya, tarjima nazariyasi va sinonimlar lug'atini tuzish amaliyoti uchun ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: sinonim, sinonimik qator, vaqt leksikasi, funksional-semantik maydon, dominant, uslubiy xoslanish, qiyosiy-tipologik tahlil.

Annotation. This article provides a comparative-typological analysis of the synonymic relations between lexical units expressing the meaning of time in English and Uzbek, drawing on a functional-semantic approach. Words denoting time (now – hozir; then – keyin, so'ng; soon – tez, yaqinda, and so on) form synonymic sets that carry distinct semantic, expressive and stylistic features. The study identifies the dominant member of each set, the differential semantic markers, the emotional-expressive colouring and the stylistic specialisation of the members. The findings show that English time synonyms rely on precise positional indicators, whereas Uzbek units are context-dependent and polyfunctional. The results are relevant for comparative lexicology, translation theory and the compilation of dictionaries of synonyms.

Keywords: synonym, synonymic set, time lexicon, functional-semantic field, dominant, stylistic specialisation, comparative-typological analysis.

1. Kirish (Introduction)

Jahon tilshunosligida vaqt kategoriyasini ifodalovchi til birliklarining funksional-semantik va kognitiv tadqiqi so'nggi o'n yilliklarda markaziy yo'nalishlardan biriga aylandi. Vaqt — inson tafakkuri va til tizimidagi eng murakkab, universal va milliy-

madaniy jihatdan o'ziga xos konseptlardan biri bo'lib, uni ifodalovchi birliklar nafaqat grammatik (zamon shakllari), balki leksik darajada ham keng ifodalanadi. B. Komri zamon kategoriyasining universallari va tipologik xususiyatlarini tahlil qilib, vaqtni ifodalashning tillararo farqlarini ko'rsatib bergan⁵. Shu nuqtayi nazardan turli tizimli tillar — ingliz va o'zbek tillari materialida vaqtni ifodalovchi leksik birliklar orasidagi sinonimik munosabatlarni o'rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Vaqt ma'nosini bildiruvchi so'zlar orasidagi sinonimlar — turlicha ifodalanadigan, ammo ma'nosi bo'yicha yaqin bo'lgan so'zlardir. Bir predmet yoki tushuncha turli so'zlar bilan nomlanishi mumkin, biroq bu so'zlar o'xshash bo'lsa-da, hech qachon mutlaqo bir xil bo'lmaydi: har bir sinonim umumiy tushunchaga kiruvchi, ayni paytda o'ziga xos qo'shimcha ma'no qirralariga ega bo'lgan birlikdir. Aynan mana shu qo'shimcha ma'no komponentlari — tushuncha hajmi, emotsional bo'yoq, uslubiy xoslanish va qo'llanish chastotasi sinonimlarni bir-biridan ajratib turadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sinonimiya hodisasi rus tilshunosligida V. V. Vinogradov, Yu. D. Apresyan⁶, o'zbek tilshunosligida A. P. Hojiyev, Sh. Rahmatullayev, X. Shamsiddinov kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. A. P. Hojiyevning o'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati bu sohadagi fundamental manba hisoblanadi. Biroq vaqt ma'nosini bildiruvchi sinonimlarning tizimli, qiyosiy va funksional-semantik tahlili maxsus tadqiqot obyekti bo'lmagan.

Sinonimiya til birliklarining mazmun jabhasidagi mushtaraklashuv natijasida vujudga keladigan tizimli hodisa bo'lib, u polisemiya va antonimiya bilan uzviy bog'liqdir. Tilning lug'at tarkibi tasodifiy so'zlar to'plami emas, balki ma'lum ma'noviy guruhlar — sinonimik qatorlar, leksik-semantik guruhlar va semantik maydonlar asosida uyushgan tizimdir. Vaqt leksikasi ana shunday semantik maydonlardan biri bo'lib, uning tarkibida ko'plab sinonimik qatorlar mavjud. Bu qatorlarni tahlil qilish tilning ichki tizimiy munosabatlarini, shuningdek, xalqning vaqtni idrok etish va konseptuallashtirish tarziga xos milliy-madaniy xususiyatlarni ochishga imkon beradi.

Sinonimlar mohiyatini ochishda katta izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, hozirga qadar sinonimlarni aniqlash mezonlari, ularni tasniflash usullari va sinonimik qatorlar chegarasini belgilash borasida yagona to'xtamga kelinmagan. Ayrim olimlar sinonimiyaning so'zlarning to'liq o'rin almasha olishi bilan bog'lasa, boshqalari ma'noviy yaqinlik va bir tushunchani ifodalash mezonini asos qilib oladi. Vaqt sinonimlari misolida bu nazariy muammolar aniq amaliy materialda sinovdan o'tkaziladi, bu esa tadqiqotning nazariy ahamiyatini oshiradi.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida vaqtni ifodalovchi leksik birliklar orasidagi sinonimik munosabatlarning semantik, uslubiy va pragmatik xususiyatlarini qiyosiy-tipologik asosda ochib berishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: (1) vaqt leksikasidagi sinonimik qatorlarni aniqlash va inventarizatsiya qilish; (2) har bir qatorning dominantini va farqlovchi semantik belgilarini belgilash; (3) ikki tildagi sinonimik qatorlarni qiyosiy tahlil qilish;

⁵Comrie B. Tense. – Cambridge : Cambridge University Press, 1985. – P. 1–56.

⁶Апресян Ю. Д. Синонимия и синонимы // Вопросы языкознания. – М., 1969. – № 4. – С. 79–91.

(4) ularning uslubiy va pragmatik vazifalarini yoritish; (5) natijalarning leksikografiya va tarjima amaliyoti uchun ahamiyatini asoslash.

2. Materiallar va metodlar (Materials and methods)

Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi vaqt ma'nosini ifodalovchi leksik birliklar (vaqt ravishlari, payt otlari, ko'makchilar), shuningdek, izohli va sinonimik lug'atlar hamda badiiy asarlardan olingan misollar (T. Drayzer, S. Moem, O. Uayld; A. Qodiriy, A. Muxtor, O'. Hoshimov asarlari) xizmat qildi. Tahlil uchun jami 50 dan ortiq ingliz va 40 dan ortiq o'zbek tilidagi badiiy manba jalb etildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi: qiyosiy-tipologik metod ikki tildagi sinonimik qatorlarni chog'ishtirish uchun; komponent (sema) tahlili sinonimlarni farqlovchi ma'no belgilarini aniqlash uchun; funksional-semantik tahlil birliklarning nutqdagi vazifasini o'rganish uchun; kontekstual-semantik va uslubiy tahlil sinonimlarning emotsional bo'yog'i va matndagi qo'llanishini ko'rsatish uchun; statistik tahlil esa qo'llanish chastotasini aniqlash uchun ishlatildi.

Metodologik asos sifatida sinonimlarni ma'nosiga ko'ra o'xshash, bir tushunchani turli obrazlar bilan ifodalovchi hamda ma'no farqlarini ekspressiv-uslubiy jihatdan tafsillovchi birliklar sifatida ta'riflagan A. P. Yevgenyeva konsepsiyasi qabul qilindi⁷. Bunda sinonimik qator dominantini tanlashda uning adabiy tilga mansubligi, neytralligi, umumiy ma'noni aniq ifodalay olishi va ko'p qo'llanishi mezonlariga tayanildi.

3. Natijalar (Results)

3.1. Vaqt leksikasidagi sinonimik qatorlar. Tahlil o'zbek tilida vaqt ma'nosini bildiruvchi bir necha yirik sinonimik qatorni ajratish imkonini berdi: tezlik ma'nosidagi tez – darrov – shu zahoti – ko'rishi bilan qatori; oldinlik ma'nosidagi oldin – avval – ilgari – burun – qadim qatori; keyinlik ma'nosidagi kech – so'ng – keyin – so'ngra qatori. Ingliz tilida esa now, then, soon, immediately, already, yet kabi birliklar mos sinonimik qatorlarni hosil qiladi.

Har bir qatorda dominant so'z (o'zbekcha tez, oldin, keyin; inglizcha soon, before, after) neytral va eng ko'p qo'llaniladigan birlik sifatida ajralib turadi, qolgan a'zolar esa unga nisbatan qo'shimcha semantik yoki uslubiy nyuans qo'shadi. Masalan, qadim so'zi oldin qatorida nafaqat oldinlikni, balki katta tarixiy uzoqlikni ham ifodalab, kitobiy-tantanavor bo'yoqqa ega bo'ladi.

Vaqt tushunchasining o'zi ham bir necha sinonimik qatorda voqelanadi. Vaqt, soat, fursat, muhlat, mahal, payt so'zlari umumiy vaqt tushunchasini turli qirralarda ifodalaydi: vaqt eng umumiy va neytral birlik, fursat va muhlat cheklangan, ajratilgan vaqt oralig'ini, mahal va payt esa muayyan lahzani bildiradi. Bu qator dominant vaqt so'zi bo'lib, qolgan a'zolar semantik jihatdan torroq va uslubiy jihatdan xoslangan hisoblanadi. Ingliz tilida bu qatorga time, moment, period, term, while kabi birliklar mos keladi, biroq ularning taqsimlanishi o'zbekchadan farq qiladi.

3.2. Semantik farqlovchi belgilar. Komponent tahlil vaqt sinonimlarini uch asosiy belgi bo'yicha farqlash mumkinligini ko'rsatdi: (a) tushuncha hajmi (keng yoki tor); (b) emotsional-ekspressiv bo'yoq (ijobiy, salbiy, neytral); (c) uslubiy xoslanish (kitobiy, so'zlashuv, shevaga oid). Bu yondashuv leksik ma'noni semalar yig'indisi

⁷Yevgenyeva A. P. Vvedeniye // Slovar sinonimov russkogo yazyka : v 2 t. – L. : Nauka, 1970. – T. 1. – S. 5–14.

sifatida talqin qiluvchi zamonaviy semantika tamoyillariga tayanadi⁸. Masalan, tez – darrov qatorida darrov soʻzi soʻzlashuv uslubiga xoslangan boʻlsa, tez neytral hisoblanadi.

3.3. Qiyosiy natijalar. Ikki tilni chogʻishtirish shuni koʻrsatdiki, bir tildagi sinonimik qator ikkinchi tilda mutlaqo boshqacha tarkib va hajmga ega boʻlishi mumkin. Ingliz tilida vaqt sinonimlari (now, then, soon) koʻproq aniq pozitsion-temporal koʻrsatkichlarga tayanadi, oʻzbek tilida esa bir birlik (hozir, keyin) kontekstga qarab bir necha maʼnoni ifodalaydigan polifunksional xususiyatga ega. Bu farq har bir tilning oʻziga xos kategorizatsiya tizimi bilan izohlanadi⁹. Chunonchi, inglizcha yet birligi oʻzbek tilida kontekstga qarab hali yoki hanuz sinonimlari bilan beriladi.

Qatorning ichki tuzilishi ham diqqatga sazovordir. Oldin – avval – ilgari – burun – qadim qatorida aʼzolar oldinlik darajasi va uslubiy boʻyogʻi boʻyicha bosqichma-bosqich joylashadi: oldin va avval neytral va zamonaviy, ilgari biroz kitobiy, burun soʻzlashuv-shevaga xos, qadim esa uzoq tarixiy oʻtmishni ifodalovchi tantanavor birlikdir. Bu gradatsiya sinonimik qatorning shunchaki soʻzlar toʻplami emas, balki ichki ierarxiyaga ega mikrotizim ekanligini koʻrsatadi.

3.4. Uslubiy va pragmatik vazifalar. Badiiy diskursda vaqt sinonimlarining almashinuvi matn dinamikasini, nutq subyektining bahosini va ekspressivlik darajasini belgilaydi. Yozuvchi bir xil vaqt maʼnosini ifodalash uchun turli sinonimlarni tanlab, personaj nutqiga oʻziga xoslik beradi hamda voqealar rivojini tezlashtirish yoki sekinlashtirish effektini yaratadi. Masalan, darrov va shu zahoti soʻzlarining tanlovi harakatning toʻsatdanligi va tezligini boʻrttirib koʻrsatadi, tez esa neytral bayonni taʼminlaydi. Bu sinonimlarning uslubiy tanlovi tarjimada muqobil topishni murakkablashtiruvchi omil hamdir.

Vaqt sinonimlarining pragmatik vazifasi ularning modal va baholovchi maʼno qirralarida ham namoyon boʻladi. Endi, hali, hanuz kabi birliklar nafaqat vaqtni, balki soʻzlovchining kutish, taajjub yoki norozilik munosabatini ham ifodalaydi: “Hali kelmadimi?” gapida hali soʻzi harakatning kutilgan vaqtdan kechikkanligiga ishorlovchi pragmatik maʼno yuklaydi. Inglizcha yet birligi ham (“Has he come yet?”) shunga oʻxshash pragmatik funksiyani bajaradi, biroq uning grammatik xulqi (inkor va soʻroq gaplarga xoslanishi) oʻzbekcha muqobilidan farq qiladi.

4. Muhokama (Discussion)

Olingan natijalar sinonimiyaning tabiati haqidagi anʼanaviy qarashlarni toʻldiradi. Sinonimlarni farqlashda “butun va qism” (tushuncha hajmi) munosabati hamda “darajalanish” (gradatsiya) hodisasi muhim metodologik ahamiyatga ega. Vaqt leksikasi misolida bu ikki mexanizm yaqqol namoyon boʻladi: qadim – ilgari qatorida tushuncha hajmi farqi, tez – darrov – shu zahoti qatorida esa belgi darajasining kuchayishi kuzatiladi. Bunday tahlil funksional grammatikaning temporallik maydoni haqidagi taʼlimotiga¹⁰ tayanib, sinonimik birliklarni maydonning markaziy va periferik zonalariga taqsimlash imkonini beradi.

⁸Ufimseva I. V. Leksicheskaya semantika. – M. : Nauka, 1985. – S. 112–140.

⁹Langacker R. Cognitive Grammar: A Basic Introduction. – Oxford : Oxford University Press, 2008. – P. 125–180.

¹⁰Бондарко А. В. Теория функциональной грамматики: Темпоральность. Модальность. – Л. : Наука, 1990. – С. 5–72.

Shuningdek, tadqiqot sinonimik qatorlar chegarasini belgilash va dominantni tanlash bo'yicha aniq mezonlarni ilgari suradi. A. P. Hojiyevning lug'atida¹¹ qo'llangan izohli yondashuv real matn misollari bilan boyitilganda, foydalanuvchiga sinonimni to'g'ri tanlashda samarali yordam beradi. Ingliz va o'zbek sinonimik qatorlarining nomutanosibligi (masalan, bitta o'zbekcha birlikka bir necha inglizcha muqobil to'g'ri kelishi) tarjima nazariyasi uchun alohida ahamiyatga ega.

Qiyosiy jihatdan olib qaralganda, sinonimik qatorlarning tillararo nomutanosibligi alohida e'tiborga loyiq. Bir tildagi yagona birlik ikkinchi tilda bir necha sinonim bilan berilishi yoki, aksincha, boy sinonimik qator boshqa tilda faqat bitta ekvivalentga ega bo'lishi mumkin. Bu hodisa har bir tilning voqelikni o'ziga xos tarzda bo'laklashi (kategorizatsiya) va konseptuallashtirishi bilan bog'liq. Vaqt tushunchasi universal bo'lsa-da, uning til vositalari orqali ifodalanishi milliy tafakkur va madaniy tajriba izlarini o'zida saqlaydi. Shu bois vaqt sinonimlarini o'rganish nafaqat leksik-semantik, balki lingvokulturologik ahamiyatga ham egadir.

Tadqiqot natijalari til o'qitish metodikasi uchun ham amaliy ahamiyatga ega. Chet tilini o'rganuvchilar ko'pincha sinonimlarni to'liq teng deb qabul qilib, ularni nutqda noo'rin almashtiradilar. Vaqt sinonimlarining semantik va uslubiy farqlarini tizimli ravishda o'rgatish bu xatolarning oldini oladi hamda o'rganuvchining nutq madaniyatini oshiradi. Ayniqsa, ingliz tilidagi soon, immediately, at once, right away kabi yaqin ma'noli birliklarning o'zbekcha muqobillarini (tez, darrov, shu zahoti) qiyosiy ravishda o'rgatish samaralidir.

Tadqiqot cheklovlaridan biri — tahlil asosan badiiy va lug'aviy manbalarga tayanganligi; publitsistik va og'zaki-so'zlashuv diskurslarida vaqt sinonimlarining qo'llanishi kelgusi tadqiqotlarni talab qiladi. Korpus lingvistikasi usullariga tayanilgan holda, so'zlarning real matnlardagi chastotasi, birikuvchanligi va semantik o'zgarishlarini o'rganish bu yo'nalishni yanada boyitadi. Shuningdek, diaxron tahlil — vaqt sinonimlarining tarixiy rivojlanishi, ma'no o'zgarishlari va arxaiklashuv jarayonlarini o'rganish tadqiqot ufqlarini kengaytiradi.

5. Xulosa (Conclusion)

Ingliz va o'zbek tillarida vaqt ma'nosini bildiruvchi leksik birliklar boy va tizimli sinonimik qatorlarni tashkil etadi. Har bir qator dominant birlik atrofida uyushib, uning a'zolari tushuncha hajmi, emotsional bo'yoq va uslubiy xoslanish bo'yicha farqlanadi. Qiyosiy tahlil ingliz tilida vaqt sinonimlarining aniq pozitsion-temporal, o'zbek tilida esa kontekstga bog'liq polifunksional xususiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari sinonimik lug'atlarni tuzishda har bir birlikning tushuncha hajmi, bo'yoqdorligi va uslubiy xoslanishini izchil aks ettirish zarurligini asoslaydi. Ular qiyosiy leksikologiya, tarjima nazariyasi hamda ingliz va o'zbek tillarini o'qitish metodikasi uchun amaliy ahamiyat kasb etadi. Kelgusi tadqiqotlar vaqt sinonimlarini korpus asosida va turli funksional uslublarda o'rganishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Comrie B. Tense. – Cambridge : Cambridge University Press, 1985. – 139 p.

¹¹Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent : O'qituvchi, 1974. – B. 4–156.

2. Апресян Ю. Д. Синонимия и синонимы // Вопросы языкознания. – М., 1969. – № 4. – С. 79–91.
3. Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent : O‘qituvchi, 1974. – 158 b.
4. Yevgenyeva A. P. Slovar sinonimov russkogo yazyka : v 2 t. – L. : Nauka, 1970. – T. 1. – 680 s.
5. Arnold I. V. Leksikologiya sovremennogo angliyskogo yazyka. – M. : Izd. LIIYA, 1959. – 277 s.
6. Raḥmatullayev III. Ўзбек тилининг изохли фразеологик луғати. – Тошкент : Ўқитувчи, 1978. – 405 б.
7. Бондарко А. В. Теория функциональной грамматики: Темпоральность. Модальность. – Л. : Наука, 1990. – 263 с.
8. Ufimseva I. V. Leksicheskaya semantika. – M. : Nauka, 1985. – 240 s.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati : 5 jildli. – Toshkent : O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 2-jild. – 672 b.
10. Langacker R. Cognitive Grammar: A Basic Introduction. – Oxford : Oxford University Press, 2008. – 562 p.

PEDAGOGIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARI BO’LAJAK JISMONIY MADANIYAT O’QITUVCHILARINI KLASSTER METODI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH

Sattorbekov Ravshanjon Solijonovich

**Namangan davlat pedagogika universiteti, “Jismoniy madaniyat” fakulteti
katta o‘qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy o‘quv yurtlarida bolajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarini tayorlashda klaster texnologiyalarni qo‘llash masalalari ko‘rib chiqiladi. Klaster-modul usulini jismoniy tayyorgarligi turlicha bo‘lgan talabalar guruhlarida qo‘llash masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, klaster tahlili, klaster, klaster-modul usuli, turli darajalar, jismoniy madaniyat, jismoniy holat, tanlab olish, ta’lim jarayoni.

Ta’lim jarayonida, xususan, jismoniy tarbiya jarayonida klasterlashning o‘zini nafaqat klaster shakllanishi ketma-ketligini, balki klasterlashning o‘zi mantiqiyligi, dinamikasi va ko‘lamini tavsiflovchi jarayon sifatida talqin qilish. Bu juda murakkab, chunki biz jismoniy tayyorgarlik, salomatlik ko‘rsatkichlari sifatida shaxsning jismoniy holatining amaldagi mezonlari va standartlari xususiyatlari bilan birgalikda ta’lim jarayonining segmentlari haqida bormoqda, bu turli xil guruhlarini birlashtirgan sotsiologning fantaziyalari haqida emas. ixtiyoriy asoslar bo‘yicha ma’lumotlar.

Hozirgi vaqtda jismoniy madaniyat o‘qituvchilari klaster tahlilini juda yaxshi bilishmaydi, chunki u ko‘proq sotsiologiya va iqtisodiy fanlarda qo‘llaniladi va hali ham jismoniy tarbiya tuzilishiga yomon moslashtiriladi, ammo umumiy va tanlab olingan sog‘lomlashtirish yo‘nalishlarining oqilona kombinatsiyasi. Jismoniy

madaniyat ontogenezning (Ontogenez jarayonida ota-onadan olingan genetik ma'lumotni amalga oshirish jarayoni sodir bo'ladi) turli yosh davrlarida va hayotning turli sharoitlarida, ayniqsa talaba yoshlarning salomatligi va jismoniy tayyorgarligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan jismoniy faoliyatni rag'batlantirishning zamonaviy usullari va shartlarini ta'minlaydi. Umuman olganda, o'qitish nazariyasi va metodologiyasiga umumiy didaktik va profilli tushuncha va yondashuvlarni joriy etish, ayniqsa, kompyuterlashtirish va o'qitishning texnik vositalaridan keng foydalanish talabalarning nazariy va amaliy bo'limlarni nisbatan qisqa vaqt ichida o'zlashtirishini ta'minlaydi va o'qituvchi guruhning tezkor tekshiruvi va etarli darajada o'zlashtirilmagan materialni aniqlash va shu bilan uni odatdagi ishidan ozod qilish bilan bog'liq.

Umuman olganda, o'qitish nazariyasi va metodologiyasiga umumiy didaktik va profilli tushuncha va yondashuvlarni joriy etish, ayniqsa, kompyuterlashtirish va o'qitishning texnik vositalaridan keng foydalanish talabalarning nazariy va amaliy bo'limlarni nisbatan qisqa vaqt ichida o'zlashtirishini ta'minlaydi va o'qituvchi guruhning tezkor tekshiruvi va etarli darajada o'zlashtirilmagan materialni aniqlash va shu bilan uni odatdagi ishidan ozod qilish bilan bog'liq.

Bularning barchasi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda bilimlarni o'qitish va nazorat qilishda samarali didaktik yondashuvdan dalolat beradi. Kompyuter ta'limning axborot texnologiyalariga bevosita integratsiyalashgan va ta'lim tizimining shunday kerakli elementiga aylanadiki, u yo'q bo'lganda talaba uchun ham, o'qituvchi uchun ham ma'lum bir noqulaylik paydo bo'ladi.

Jismoniy tarbiya va sportda axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyati rasmiylashtirish qiyin bo'lgan biologik ob'ektlarni boshqarishni tashkil etishdir. Shu nuqtai nazardan o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ob'ektiv-subektiv munosabatlar masalalari ularning biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi. Shunday qilib, jismoniy tarbiyada amaliy foydalanish uchun biz o'lchash va baholash mumkin bo'lgan jismoniy holatning mavjud va informatsion ko'rsatkichlarini tanlashimiz mumkin. Bular: somatometrik, somatoskopik va fiziometrik ko'rsatkichlar, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy faollik, kasallanish bo'lishi mumkin. Jismoniy holatning o'lchanadigan belgilarini tanlashda ularni o'lchashning soddaligini, baholash usullarini va jalb qilinganlarning motivatsiyasini hisobga olish kerak. Klaster tahlili - har biri ma'lum bir o'zgaruvchilar to'plami bilan tavsiflangan ko'p o'lchovli kuzatishlarni tasniflash imkonini beruvchi usullar to'plami. Klaster tahlilining maqsadi odatda klasterlar deb ataladigan bir-biriga o'xshash ob'ektlar guruhlarini shakllantirishdir [2].

Sog'liqni saqlashning individual dasturlarini ishlab chiqishda klaster-modul usulidan foydalanish, funksional va jismoniy holatni to'g'ri baholash katta ahamiyatga ega, chunki u nafaqat jismoniy mashqlarning tanaga ta'sirini o'rganishga imkon beradi, balki ba'zan yashirin kasallik tashxisini qo'yish, jismoniy faoliyatga moslashish qobiliyatini o'rnatish, uni optimalligini aniqlash va hokazo. Modulni o'quv elementi sifatida standartlashtirilgan buklet shaklida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi mumkin:

- ✓ aniq tuzilgan o'quv maqsadi;
- ✓ zarur jihozlar ro'yxati;

- ✓ tegishli ta'lim elementlari ro'yxati;
- ✓ batafsil illyustratsiyalar bilan birga qisqacha aniq matn ko'rinishidagi dolzarb o'quv material;
- ✓ vosita ko'nikmalarini rivojlantirish uchun amaliy mashqlar;

Hozirgi vaqtda jismoniy tarbiya bo'yicha yangi o'qitish texnologiyalarini tizimlashtirish va tahlil qilish uchun ilmiy asoslarni ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib, ular turli xil vazifalarni hal qila oladi: bilimlarni etkazish, ularni o'zlashtirish jarayonini kuzatish, tasviriy materiallarni namoyish qilish va jismoniy rivojlanishni rivojlantirish. fitnes. Solovieva E. B. (1996) jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etishning eng muhim muammosi - bu o'quv faoliyati jarayonida o'quvchilar tomonidan olingan yuklarni o'zlashtirish darajasini nazorat qilish imkonini beradigan o'quv tizimini izlash deb hisoblaydi. shaxsning jismoniy rivojlanishini individuallashtirish imkonini beradi. [4].

O'z tanangizni bilish uchun uning harakatlarini rag'batlantirishni o'rganing, asab-mushak tarangligini va psixo-emotsional charchoqni engillashtiring. Bu turli xil tadqiqotlarda tasdiqlangan, bu erda talabalar o'rtasida kasallanishning kamayishi, reabilitatsiya va tiklash choralari tizimidan maqsadli foydalanganlar (barcha 4-5 yil davomida) jismoniy va intellektual qobiliyatlarning oshishi statistik jihatdan isbotlangan.

Modellashtirish "bizni qiziqtirgan ob'ekt to'g'ridan-to'g'ri o'rganilmaydigan, balki yordamchi sun'iy yoki tabiiy tizim ("kvazi-ob'ekt") qo'llaniladigan ob'ektning vositachilik bilan amaliy yoki nazariy ishlashi usuli bo'lib xizmat qiladi. bilishning ma'lum bosqichlarida uni almashtirishga va uni o'rganishda, pirovardida, modellashtirilgan ob'ektning o'zi haqida ma'lumot berishga qodir bo'lgan ma'lum ob'ektiv muvofiqlik.

O'qituvchi faoliyati nafaqat har bir talaba jismoniy tarbiyaning turli bo'limlari bilimlaridan foydalanish sohasidagi konseptual va uslubiy mazmun, faoliyat usullari to'g'risida tuzilgan, maqsadli va asosli ma'lumot berish, balki jismoniy tarbiyaning bevosita va bilvosita nazorati sifatida ham ko'rib chiqilishi kerak. ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda o'quvchilarning jismoniy faolligi o'qituvchisi.qo'yilgan o'quv maqsadlariga muvofiq.

Tibbiyot va jismoniy tarbiyada kompyuterlardan foydalanish katta imkoniyatlar yaratadi. Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, jismoniy tarbiya darslarini individuallashtirish jismoniy tarbiya va o'quvchilar salomatligini dinamik kuzatish (monitoring) tizimlarini ishlab chiqishni anglatadi. Buni zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida, sog'lig'i yomon o'quvchilarning jismoniy tarbiyasida amalda qo'llanilmaydigan klaster-modulli o'qitish usuli yordamida amalga oshirish mumkin, yuqorida aytilganlarning barchasi sifatni baholashning yangi shakllarini topish zarurligini ko'rsatadi. jiddiy sog'lig'i buzilishi bo'lgan talabalar uchun bilim va ko'nikmalar.

Biroq, zamonaviy axborot texnologiyalarining yuqori salohiyatiga qaramay, ular hali ham oliy jismoniy tarbiya tizimida keng qo'llanilishini topmagan. Yuqoridagilar bilan bog'liq holda, jismoniy tayyorgarligi turlicha bo'lgan o'quvchilarning jismoniy tarbiyasi bo'yicha o'quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish bugungi kunda juda dolzarb ko'rindi.

Klaster-modul usuli - bu turli darajadagi talabalarning muvofiqlashtirish qobiliyatlari, chidamliligi va boshqa jismoniy va psixomotor qobiliyatlarini rivojlantirish metodologiyasida, ularning rivojlanishiga yo'naltirilgan ta'sir qilishning umumiy muammosida mutlaqo yangi zamonaviy tendentsiya.

Adabiyotlar:

1. Oldenderfer M. S., Bleshfild R. K. Klasternyy analiz. / — V kn.: Faktornyy, diskriminantnuy i klasternyy analiz. — M.: Finansy i stati-tika, 1989.—S.215.
2. Klassifikatsiya i klaster / Pod red. Dj. Ven Rayzina // Per. s angl. P. P. Kolsova; Pod red. Yu. I. Juravleva.-- M.: Mir, 1980.— S.388.
3. Jambyu M., Ierarxicheskiy klaster-analiz i sootvetstviya // Per. s frans. B. G. Mirkina,- M.: Finansy i statistika, 1988.-- S 300.
4. Proxorova M. V., Sidorov A. A., Sinyuxin B. D., Semyonov A. G. Pedagogika fizicheskoy kultury: Uchebnik M.: Iz-vo «Put»: TID «Alyans», 2006. — S. 129.Udk 796 (075.8) BBK 75.1 P 84

MUNDARIJA			
1.	Карпенко Василий Анатольевич	МОДЕЛЬ ТРУДОУСТРОЙСТВА МОЛОДОГО СПЕЦИАЛИСТА В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ	4
2.	Imamova Umida Ismoil qizi	JAMIYATDA AXBOROTNING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI	14
3.	Abdullayeva M.M.	G. HIRSUTUM L. TURIGA MANSUB NAVLAR, TIZMALAR VA DURAGAYLARINING VERTICILLIUM DAHLIAE KLEB BILAN TABIIY ZARARLANGAN SHAROITDA INFEKSION KASSALANISHI	19
4.	O'rinboyev Muxammadzoxir Iqboljon o'g'li	FIZIKA FANINI O'QITISHDA METAKOGNITIV STRATEGIYALARNI QO'LLASHNING TA'LIMIY NATIJALARI	24
5.	Норматова Замира Аминжоновна	СПЕЦИФИКА И МЕТОДИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМ КАПИТАЛОМ В ОБРАЗОВАНИИ	26
6.	Suleymanova Sevara Abdumalikovna	ADABIYOTSHUNOSLIKDA QISSA POETIKASI	32
7.	G'aybullayeva Zilola Xushnud qizi Ho'sinova Saodatjon Umirbek qizi	PSIXOLOGIYADA EMPATIYA TUSHUNCHASI	35
8.	Iriqulova Zuhra Ibodullayeva Elmira Burteshova A.B.	O'SMIRLIK DAVRIDA EMPATIYANING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	38
9.	Akbarova D. R. Abdurakmonov Sh. Y. Yoldoshev A.A.	JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING HAYOTIDA TIBBIY BILIMLARNING O'RNI	41
10.	Raupova Mohinur Haydar qizi	QUANTUM SIMULATIONS OF DYNAMIC SYSTEMS: A PYTHON-BASED APPROACH	45
11.	Oripova Sarvinoz Narzulloyevna	YANGI DAVR HIKOYACHILIGIDA G'ARB ADABIY-ESTETIKASI TA'SIRI	47
12.	Maftuna Shermatovna Omonova	INGLIZ ROMANTIK ADABIYOTINING ASOSIY XUSUSIYATLARI	53
13.	Davlatova Munisa Aminovna	BOSHLANG'ICH SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O'QITISHDA AUDIO MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI	55
14.	Xoshimova Dilnoza Rixsiboyevna	AMALIY INGLIZ TILI O'QUV MASHG'ULOTLARIDA KONNOTATIV MOHIYATLI O'QUV MATERIALLARIDAN FOYDALANISH USULLARI	59
15.	Umarova Shohida Absalomovna	MIGRANT OILALARDA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY QADRIYATLAR UYG'UNLASHUVINING PSIXOLOGIK JIHATLARI	62
16.	Юлдашева Т.А.	РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ	65

		НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУПП В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ	
17.	Karimov Ravshanbek Rizomatovich	IJTIMOIIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLIK MUAMMOSINING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILISHI	69
18.	Юсупова Феруза Махкамовна	ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ	76
19.	Rustamova Zuhro Sanjar qizi	BOKS MASHG'ULOTLARIDA TEXNIK VA TAKTIK TAYYORGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI	80
20.	Sodiqova Nurgul Tursunboyevna	UY TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.	84
21.	Bozorboyev Javlon	OLIY TA'LIMDA GAMIFIKATSIYANI JORIY ETISHNING TEXNIKPEDAGOGIK MEXANIZMLARI	87
22.	J.B.Sotvoldiyev	BELBOG'LI KURASHCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISHI VA SPORT NATIJALARIGA TA'SIRI	92
23.	Matyaqubov Kamaladin Kuronboyevich	EMPATIYA VA EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH: ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR	98
24.	Qodirova Mahzuna Shamshidin qizi	ALALIYA VA AFAZIYADA FONOLOGORITMIK MASHQLARNI ADAPTATSIYALASH OMILLARI	102
25.	Sodiqov Muhammadali Abdullaxat O'g'l	KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA OG'ZAKI VA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MODEL	105
26.	Temirbekova A.O.	ONA TILINI O'QITISHDA NEYROPEDAGOGIK VA LINGVODIDAKTIK JIHATLARNING O'RNI HAMDA AHAMIYATI	108
27.	Usarov Jabbor Eshbekovich	ELEKTRON PORTFOLIO ASOSIDA TALABALARNING KASBIYREFLEKSIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH	112
28.	Anvarov Abdulhamid Akmal o'g'li	VAQT MA'NOSINI BILDIRUVCHI LEKSIK BIRLIKLAR ORASIDAGI SINONIMIK MUNOSABATLAR (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MATERIALIDA)	116
29.	Sattorbekov Ravshanjon Solijonovich	PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHILARINI KLAUSTER METODI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH	121

